5s

◆PARTIYAVIY loyiha

Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi 20 ga yaqin maktablarga jami 2000 dan ortiq o'zbek tilidagi o'quv va badiiy **adabiyotlarni taqdim etish** rejalashtirilgan.

№ 22 (1254) 2024-yil
12-iyun, chorshanba

ISSN 2010-7714

QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

milliy tiklanish

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

Adadi – 5 063

1995-yil 10-iyundan chiqa boshlagan www.mt.uz \ milliytiklanish2022@umail.uz

www.mtgazeta.uz | fb.com/milliytiklanish.gazetasi t. ... iklanish_gazetasi

KECHMISHLI XALQNING KELAJAGI HAM BOR 4s

PARTIYA faoliyatidan 7s

MILLIY TERMA jamoamiz Eron bilan durang o'ynadi 8s

PARLAMENTDA

zilzila va byudjet, fraksiyada esa yana bog'cha va tarbiya

"Bog'chalarda o'zbek bolasi o'zbek tilida, qadriyatlarimiz asosida ta'lim-tarbiya olsin, boshqa millat vakillari ham o'z tilida, o'z qadriyatlari asosida tarbiyalansin. Zero, hech bir davlatda bog'cha bolalariga boshqa tillarda ta'lim-tarbiya berilmaydi.

Alisher QODIROV, «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi Markaziy kengashi raisi

2s

NUKUSDA YOSHLAR FESTIVALI

Nukus shahridagi I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi qoshidagi maydonda "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!" shiori ostidagi festivalning ochilish marosimi hamda gala-konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan har yili iyun oyi yurtimizda "Yoshlar oyligi" deb e'lon qilinib, barcha joylarda turli tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda. Joriy yil ham yoshlar festivaliga Qoraqalpog'istonda birinchilardan bo'lib start berildi.

Tadbirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi A.Orinbayev ishtirokchilarni festivalning ochilishi bilan qutlab, bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatish, qobiliyatlarini yuzaga chiqarish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarga to'xtaldi.

Festival doirasida hududda "Ibrat farzandlari", "Mutolaa", "Ustoz", "Uzches" platformalari faoliyati shoxobchalari va o'quv markazlari ko'rgazmalari tashkil etildi. Jumladan, "Kelajak kasblari" loyihasi doirasida chet tili va IT o'quv kurslarining ko'rgazmasi namoyish etilib, tadbirda ishtirok etayotgan yoshlar o'z xohishi bilan shu vaqtning o'zida ro'yxatdan o'tishdi. Tadbirda qator yo'nalishlar bo'yicha natijaga erishib kelayotgan bir guruh yoshlar, jumladan "Yoshlar ovozi" Bo'zatov FEST festivali g'oliblari taqdirlandi.

Tadbir so'nggidagi gala konsert, ayniqsa, taniqli san'atkorlarning chiqishlari festivalni chin ma'noda yoshlar bayramiga aylantirdi. Qaynoq yoz qqshomida yoshlarga haqiqatda ham bayramona ruh hadya qilgan festival Nukus osmonidagi mushaklar shousi bilan yakuniga yetdi. "Yangi O'zbekiston yoshlari birlashaylik!" shiori ostidagi festival tumanlarda davom etmoqda.

Dovud ABIBULLAYEV, O'zA

«MILLIY TIKLANISH»



BIRINCHI RENESSANSDAN UCHINCHISI SARI...

DONISHMANDLIK UYI

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish jarayonida milliy merosimiz, eng avvalo, birinchi va ikkinchi Renessans vakillarining insoniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini bilish, hatto ularning hozirgi davr uchun ham qanchalar muhim ekanini chuqur anglash lozim.

Birinchi Renessans haqida so'z ketganida tasavvurimizda dastlab «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») paydo bo'ladi. Ma'lumki, Abbosiylar davlatining iftixori sanalgan «Bayt ul-hikma» o'rta asrlarda mashhur bo'lgan barcha yirik intellektual bilimlar majmuasidir. Bu ulug' fan dargohiga bog'liq aksariyat moddiy va yozma manbalar yo'q qilib tashlanganiga qaramay, «Bayt ul-hikma» to'g'risidagi tarixiy xotira bugungacha ham yashab kelmoqda. Olimlarning fikricha, «Bayt ul- hikma»ning asoschisi Abbosiy xalifa Abu Jafar al-Mansurning (754-774- yillarda hukmronlik qilgan) buyrug'i bilan butun dunyodan antik davrning tibbiyot, astronomiya, texnika va adabiyotga oid kitoblari yig'ilib, arab tiliga tarjima qilinadi. Shu bilan birga, Qur'oni Karim, Islom tarixi va Hadislarga oid kitoblar jamlanib, muhtasham va mahobatli binoga joylashtiriladi. Shu tariqa «Bayt ul- hikma»ga asos solinadi. Qayd etilishicha, bu davrda tarjima bilan shug'ullangan olimlar katta miqdordagi mablag'lar bilan rag'batlantirib borilgan. Dastlab astronomiyaga oid «Al-Sind Hind» kitobi hamda Aristotel, Yevklid, Klavdiy Ptolemey kabi donishmandlarning asarlari arab tiliga o'girilgan.

Davomi 6-sahifada

ANONSLAR

PREZIDENTNING soha xodimlari bilan uchrashuvidan keyin qanday o'zgarishlar ro'y beryapti? 3s

6-sahifa

150

Toshkent shahridagi chaqiruvlarning 5 foizini «oddiy» chaqiruvlar tashkil etdi desak, ya'ni tibbiy maslahat berish orqali masala hal etilsa yiliga

mlrd. so'm mablag' iqtisod qilinar ekan. Yoki feldsherlik-paramedik brigadalarga elektromobillar joriy etish natijasida 60 mlrd. so'm tejaladigan bo'lyapti.

«X» avloddan -« avlodga » 5s

JST ga a'zo bo'lsak qanday manfaat ko'ramiz? 3s

XITOYLIK «PROFESSIONAL»LARDAN **O'RGANSAK BO'LARKAN** 4s

2024-yilning 12-iyun sanasidan. Manba: cbu.uz

AQSH dollari 12598.05. 1 YEVRO 13544.16. 1 Rossiya rubli 141.43. 1 Angliya funt sterlingi 16042.36. 1 Yaponiya iyenasi 80.12.

PARLAMENTDA ZILZILA VA BYUDJET, FRAKSIYADA ESA YANA BOG‘CHA VA TARBIYA

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi yalpi majlisida ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga doir bir qator qonun loyihalari muhokama qilindi. «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi shular jumlasidandir. Mazkur qonun hukumatning maqomi, tarkibi, uni shakllantirish tartibi, vakolatlari hamda faoliyatiga doir bir qator yangiliklarni nazarda tutadi.

Masalan, qonunga ko‘ra, endi har yarim yilda Bosh vazirning o‘z o‘rinbosarlari va vazirlar bilan birgalikda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot taqdim etishi belgilanmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyadan kelib chiqib, Hukumatning iqtisodiyot, byudjet, moliya, soliq, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohalaridagi vakolatlari ham ko‘rib chiqilmoqda.

Ta’kidlanganidek, qonun loyihasining qabul qilinishi Vazirlar Mahkamasi ishini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, zamonaviy mexanizmlarni joriy etish, Hukumat a’zolarining biriktirilgan sohalarda aniq natijalarga erishishi uchun shaxsiy mas’uliyatini oshiradi.

> **2021-YILDA 833 TA HOLATDA RUXSATSIZ QURILISH QILGANLIK ANIQLANGAN BO‘LSA, 2022-YILDA BU KO‘RSATKICH 1870 TAGA (110 FOIZGA) OSHGAN. BOSH REJALARGA RIOYA ETMASDAN QURILISH QILGANLIK ESA 2021-YILDA 17 TA, 2022-YILDA 24 TAGA KO‘PAYGAN.**

Majlisda «Seysmik xavfsizlikni ta’minlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi qonun loyihasi ham ikkinchi o‘qishda moddama-modda ko‘rib chiqildi.

So‘nggi vaqtlarda dunyoning ko‘plab hududlarida sodir bo‘layotgan zilzilalar O‘zbekistonda ham seysmik xavfsizlikni ta’minlash, bino va inshootlarning zilzilabardoshliligini oshirishga qaratilgan bir qator manzilli chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishni taqozo etyapti. Xususan, bu jarayonda ishtirok etayotgan tashkilotlar mas’uliyatini oshirish barobarida shaharsozlik normalariga qat’iy rioya etish bo‘yicha nazoratni kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ya’ni, ruxsatsiz qurilish qilish, bosh rejani hamda obyektlarni foydalanishga qabul qilish qoidalarini buzganlik hamda o‘zboshimchalik bilan ko‘p kvartirali uylarning yerto‘la va birinchi qavatini buzish yoki rekonstruksiya qilganlik uchun jinoiy javobgarlik kiritilmoqda. Xususan, mazkur harakatlarning og‘ir yoki yengilligiga qarab ma’muriy jazo tayinlangandan so‘ng sodir etilsa, 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoxud 1 yildan 3 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi, agar qonunbuzarlik odamlar o‘limiga sabab bo‘lsa yoki boshqa og‘ir oqibatlarni keltirib chiqarsa, 3 yildan 5 yilgacha ozodlikni cheklash yoki shu muddatga ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilmoqda.

Tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday qilmishlar uchun ma’muriy jarimalar pastligi sabab huquqbuzarliklar yildan yilga oshib boryapti. Ayniqsa, ko‘p qavatli uylarning birinchi qavati yoki yerto‘lasini «nejiloy» qilib, do‘kon, kafe, restoran va boshqa xizmat ko‘rsatish obyektlariga aylantirish odatga aylanib qoldi. Shu o‘rinda Turkiyada sodir bo‘lgan oxirgi zilzilada qulagan uylarning 30 foiziga aynan pastki qavatlarda kiritilgan o‘zgartirishlar sabab bo‘lganini aytish joiz.

Shundan kelib chiqib, qonun loyihasida huquqbuzarlik va qonunbuzarlik to‘g‘ri kvalifikatsiya qilinishi uchun har bir huquqbuzarlik alohida qism sifatida qayd etilmoqda. Qonun loyihasida inspeksiya yoki sudlarda sodir etilishi mumkin bo‘lgan korrupsiyani oldini olish maqsadida ma’muriy jarimalar miqdorini yagona qilib belgilash, ya’ni amaldagi ma’lum bir summadan ma’lum summagacha degan normadan voz kechish ham nazarda tutilmoqda.

Mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi shaharsozlik faoliyati sohasida ko‘payib borayotgan noqonuniy qurilishlarning oldini olish, tasdiqlangan bosh rejalarga rioya etilishini ta’minlash, qurilish sifatini oshirish hamda sodir etilgan huquqbuzarliklarni kamaytirib, jazo ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yilda 833 ta holatda ruxsatsiz qurilish qilganlik aniqlangan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 1870 taga (110 foizga) oshgan. Bosh rejalarga rioya etmasdan qurilish qilganlik esa 2021-yilda 17 ta, 2022-yilda 24 taga ko‘paygan. Ko‘p kvartirali uylarni o‘zboshimchalik bilan yerto‘la va birinchi qavatini tayanch qismini buzish yoki rekonstruksiya qilganlik holatlari bo‘yicha 2021-yilda 13 249 ta, 2022-yilda 11 778 ta va 2023-yilda esa 13 095 ta huquqbuzarlik aniqlangan.

Majlisda deputatlar tomonidan Bosh vazir o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziri Jamshid Qo‘chqorovga «Tashabbusli byudjet asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish va ularning natijadorligini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida» Qonunchilik palatasining Parlament so‘rovini yuborish haqidagi masala ham ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, bugun fuqarolar byudjet mablag‘lari shakllanishidan uning sarflanishigacha bo‘lgan jarayonlarni nafaqat kuzatib borish, balki unda ishtirok etish imkoniyatiga ham egalar. Jumladan, «Ochiq byudjet» va «Tashabbusli byudjet» kabi loyihalarning hayotga tatbiq etilgani, ochiqlik va shaffoflik sari jiddiy qadam bo‘ldi.

Shu o‘rinda Prezidentimizning «Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori bilan mablag‘larni tashabbusli byudjet jarayonini moliyalashtirishga yo‘naltirish uchun maxsus jamg‘arma tashkil etilib, ushbu mablag‘larni boshqa maqsadlarga ishlatilishi qat’iyan taqiqlandi.

Fuqarolarga o‘z loyihalarini turli ma’muriy aralashuvlarsiz onlayn platforma orqali shakllantirish hamda g‘olib bo‘lgan loyihalarni «maxsus» Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan kafolatlangan tarzda moliyalashtirish imkoniyatining berilgani esa ularning mazkur jarayonga bo‘lgan ishonchini yanada oshirdi. Lekin shunga qaramay, deputatlarning saylov okruglaridagi uchrashuvlarida saylovchilar tomonidan «Tashabbusli byudjet» asosida loyihalarni tanlab olish hamda ularni moliyalashtirish jarayonlari yuzasidan e’tirozlar ham bildirilmoqda.

Shundan kelib chiqib, majlisda deputatlar fuqarolar takliflari asosida shakllangan «Tashabbusli byudjet» loyihasini yanada takomillashtirish, shakllantirish, tanlash va tanlov g‘oliblarini aniqlashda inson omilini mumkin qadar qisqartirish borasidagi choralar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirishlar berish haqida Bosh vazir o‘rinbosari – iqtisodiyot va moliya vaziriga Parlament so‘rovi yuborishga qaror qildilar.

«Milliy tiklanish» demokratik partiyasi fraksiyasining bir kun oldingi yig‘ilishida ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizga oid bir qator masalalar muhokama qilingan edi. Dastlab deputatlar O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi va ushbu tashrifning mohiyatiga to‘xtalishgandi.

Ta’kidlash lozim, Markaziy Osiyo davlatlari bilan do‘stona, yaqin qo‘shnichilik aloqalarini rivojlantirish Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi sanaladi. Chunki yon qo‘shnilar bilan yaxshi bo‘lmay turib, dunyoning boshqa davlatlari bilan munosabatlarni kengaytirish mumkin emas. Aynan ana shu tamoyil asosida O‘zbekistonning ochiq, konstruktiv va pragmatik siyosati natijasida mintaqamizda o‘zaro do‘stona muhit shakllandi.

Ma’lumki, Markaziy Osiyo davlatlari Turkiy davlatlar kengashi a’zolari hisoblanadi. Shu ma’noda, O‘zbekiston rahbarining Turkiyaga navbatdagi tashrifi turk dunyosi davlatlari o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi bilan tarixiy ahamiyatga ega ekani alohida ta’kidlandi.

Qayd etilishicha, so‘nggi yillarda o‘zaro savdo hajmi 1,5 barobarga, qo‘shma korxonalar soni esa 2, O‘zbekiston iqtisodiyotiga turk investitsiyalari hajmi 2,5 barobarga oshdi. Ikki davlatning yirik shaharlari o‘rtasida haftasiga 90 ta parvoz amalga oshirilmoqda. O‘tgan qisqa davrda turkiyalik sayyohlar oqimi ham 3 barobarga ko‘paydi. Bundan tashqari, yaqin kelajakda ikki tomonlama savdo hajmini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Ekspertlar bu galgi tashrif doirasida 10 milliard dollarlik yangi investitsiya loyihalari portfeli shakllantirilganini ana shu yo‘ldagi salmoqli natija deb baholamoqdalar.

Ma’lumki, tashrif davomida Anqara shahrida Prezidentlar raisligida O‘zbekiston-Turkiya Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig‘ilishi ham bo‘lib o‘tdi. Tadbirkorlar bilan bunday formatdagi muloqot ilk bor o‘tkazilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston-Turkiya sanoat klasterini tashkil etish yuzasidan kelishuvga erishildi va shubhasiz, ushbu sanoat zonasi o‘zaro amaliy hamkorlikning lokomotiviga aylanishi ta’kidlandi.

Shundan keyin deputatlar kun tartibiga kiritilgan qonun loyihalari muhokamasiga o‘tdilar. Qayd etish joizki, o‘tgan fraksiya yig‘ilishlaridan birida maktabgacha ta’lim tashkilotlarini malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni tatbiq etish masalalari muhokama qilinib, Maktabgacha ta’lim agentligi direktori Agrippina Shinga

> **FUQAROLARGA O‘Z LOYIHALARINI TURLI MA’MURIY ARALASHUVLARSIZ ONLAYN PLATFORMA ORQALI SHAKLLANTIRISH HAMDA G‘OLIB BO‘LGAN LOYIHALARNI «MAXSUS» JAMG‘ARMA MABLAG‘LARI HISOBIDAN KAFOLATLANGAN TARZDA MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATINING BERILGANI ULARNING MAZKUR JARAYONGA BO‘LGAN ISHONCHINI YANADA OSHIRDI.**

ushbu masalalarga xolis baho berish uchun Parlament so‘rovi yuborishga qaror qilingan edi. Deputatlar navbatdagi yig‘ilishda Parlament so‘roviga kelgan javobni ham ko‘rib chiqdilar. Unda ta’kidlanishicha, bugun davlat-xususiy sherikchiligi asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarida 42 313 nafar rahbar va pedagog faoliyat yuritmoqda. Shundan, 8 327 nafari (19,7 foiz) oliy, 3 304 nafari (7,8 foiz) tugallanmagan oliy va 30 682 nafari (72,5 foiz) o‘rta maxsus ma’lumotlilardir.

To‘g‘ri, keyingi yillarda tizimni malakali pedagoglar bilan ta’minlash maqsadida oliy ta’limda qabul kvotalari 2,5 baravarga oshirildi, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ta’lim bakalavriant 3 yil etib belgilandi. Nomutaxassislarni kasbiy va pedagogik qayta tayyorlash maqsadida 4 va 6 oylik qayta tayyorlash kurslari tashkil etildi. Umuman, bugungi kunda respublikamizda jami 71 ta davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida soha uchun kadrlar tayyorlanmoqda.

Shuningdek, Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish instituti hamda Toshkent shahridagi Puchon universitetida davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglari uchun pulli shaklda 144 soatga mo‘ljallangan malaka oshirish kurslari tashkil etilgan. O‘tgan yilning o‘zidagina 13 000 nafar (23 foiz) tarbiyachilar qisqa muddatli malaka oshirish kurslariga jalb etildilar. 2024-yil yakunlari bo‘yicha esa bu ko‘rsatkichni 54 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Shu maqsadda, davlat xususiy sheriklik asosidagi va oilaviy nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlari uchun 36 soatga mo‘ljallangan bepul masofaviy shakldagi qisqa muddatli malaka oshirish kursini o‘tkazish reja-jadvali ishlab chiqildi. Ta’kidlanishicha, shu kunga qadar davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining 6,5 ming nafardan ortiq pedagoglari o‘qitildi. Shu bilan birga, «Ilk qadam» davlat o‘quv dasturi orqali ta’lim-tarbiya jarayoni yagona ta’lim dasturlari asosida olib boriladi. Ushbu dasturni ishlab chiqishda Buyuk Britaniya, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Finlyandiya, Shvetsiya, Janubiy Koreya va Estoniyaning tajribasi inobatga olinganini aytish joiz.

– Maktabgacha ta’lim tizimidagi ishlar har doim partiyamiz uchun ustuvor bo‘lib kelgan, – dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov Parlament so‘roviga yo‘llangan javob xatiga muhokamasat bildirib. – Bog‘chalarda oliy ma’lumotli kadrlarni ko‘paytirish haqida qanchalik ko‘p gapirmaylik, baribir bu masalani hal qilish qiyin kechmoqda. To‘g‘ri, bu agentlik ixtiyoridagi masala emas. Chunki ish haqi kamligidan soha jozibador emas. Yosh bolalar bilan ishlash esa juda ham qiyin va mas’uliyatli ishdir.

Yig‘ilishda Maktabgacha ta’lim bilan bog‘liq yana bir masala – ko‘pgina bog‘chalarda bolalarga rus tilida talim-tarbiya berilayotgani masalasi ham ko‘tarildi. Ixtisoslashgan bog‘chalarni tushunish mumkin, ammo shaharlardagi aksariyat o‘zbek bog‘chalarida ham mashg‘ulotlar boshqa tillarda olib borilmoqda.

To‘g‘ri, bu ota-onalar talabi bo‘lishi mumkin. Lekin tarbiya metodikasida bolani ilk ta’limda o‘z ona tilisida o‘qitish degan tushuncha bor. Ota-onalar xohlasa ham, xohlamasa ham bog‘chalarda bolalarni boshqa tilda o‘qitish bu bola huquqlarining buzilishi hisoblanadi.

Bog‘chalarda o‘zbek bolasi o‘zbek tilida, qadriyatlarimiz asosida ta’lim-tarbiya olsin, boshqa millat vakillari ham o‘z tilida, o‘z qadriyatlari asosida tarbiyalansin. Zero, hech bir davlatda bog‘cha bolalariga boshqa tillarda ta’lim-tarbiya berilmaydi. Masalan, Rossiya ko‘p millatli davlat bo‘lsada, bog‘cha mashg‘ulotlarini faqat rus tilida olib borish shartligi belgilab qo‘yilgan. Millat kelajagi, xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan ushbu og‘riqli masalani hech qachon e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham «Milliy tiklanish» qadriyatlar himoyachisi sifatida ushbu masalani kun tartibiga qo‘yaveradi.

Ravshan MAHMUDOV,
«Milliy tiklanish» muxbiri

✓ Kuting!

> Prezidentning Jahon savdo tashkiloti masalalari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi joriy etildi. Tashkilot bilan ishlash bo‘yicha idoralararo komissiya qayta tuzildi. Adliya vazirligida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha maxsus boshqarma tashkil etildi.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
12-iyun, 2024-yil
№22 (1254) chorshanba

JST GA A’ZO BO‘LSAK QANDAY MANFAAT KO‘RAMIZ?

Nodir TILAVOLDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

- • 2005-yilda «muzlatilgan» harakatga 15 yildan keyin ikkinchi start berildi.
- • 2030-yilgacha YAIM 130 milliardga chiqadi.
- • Parlament JST yo‘lidagi eng asosiy «qurol»mi?

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasida belgilangan eng muhim maqsadlardan biri bu – O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish masalasidir.

Chindan ham 164 ta davlat a’zo bo‘lgan, 13 ta davlat kuzatuvchi maqomini olgan va dunyo savdosining 98 foiz ulushiga ega bo‘lgan JSTga a’zo bo‘lish milliy iqtisodiyotimizning salohiyatini yanada oshirish, global ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat zanjirida muhim bo‘g‘inga aylanish imkonini beradi.

Ma’lumki, O‘zbekiston ushbu tashkilotga a’zo bo‘lish uchun 1994-yilda ariza bergan bo‘lsada, 2005-yildan keyin a’zolik jarayoni to‘xtab qolgan edi. Oradan 15 yil o‘tib, ya’ni 2020-yildan boshlab yana JSTga a’zolik jarayonini boshladik va bu masala davlat siyositining eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

JSTga a’zolik jarayoni faol bosqichga o‘tganidan keyin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi tuzilmasida Prezidentning Jahon savdo tashkiloti masalalari bo‘yicha maxsus vakili lavozimi joriy etildi. Tashkilot bilan ishlash bo‘yicha idoralararo komissiya qayta tuzildi. Adliya vazirligida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish bo‘yicha maxsus boshqarma tashkil etildi. Qisqa vaqt davomida milliy qonunchilikni JST bitimlariga uyg‘unlashtirish maqsadida 2023 – 2024-yillar davomida 24 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, 40 ga yaqin hujjatlar uyg‘unlashtirildi.

JSTga qo‘shilish bo‘yicha ishchi guruh uchrashuvlarining faollashgani natijasida 30 dan ortiq davlatlar bilan ikki tomonlama faol muzokaralarni olib borayotgan bo‘lsak, shundan 11 ta mamlakat bilan bozorga kirish bo‘yicha hamma shartlar kelishib olindi.

Bu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi, xususan, palataning ikki nafar deputati Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash bo‘yicha idoralararo komissiya a’zosi sifatida barcha jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

Ma’lumki, JSTga a’zo bo‘lishning asosiy talablaridan biri, bu, avvalo milliy qonunchilikning tashkilotning qoida, me’yor va stadartlariga uyg‘un bo‘lishidir. Shuning uchun ham Qonunchilik palatasiga kiritilgan barcha qonunlarni Jahon savdo tashkiloti qoida va me’yorlariga muvofiq bo‘lishini ta’minlash maqsadida ekspertizadan o‘tkazish yo‘lga qo‘yildi.

Jumladan, palata tomonidan 2023-yil 29-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun bilan «Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida»gi, «Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida»gi, «Reklama to‘g‘risida»gi, «Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to‘g‘risida»gi va «Davlat boji to‘g‘risida»gi qonunlarga o‘zgartishlar kiritildi. Bu bilan xorijiy va mahalliy kompaniyalar uchun bir xil imkoniyat va sharoitlar yaratish, milliy intellektual mulk tizimini JSTning Intellektual mulk huquqining savdo bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi bitimi talablariga birxillashtirish bilan bog‘liq normalar qonunchilikda o‘z aksini topdi.

Shuningdek, 2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining «Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi qonunni qabul qilishda JST talablaridan kelib chiqib, mamlakatimizga import qilinadigan ayrim aksiz solig‘i to‘lanadigan tovarlar uchun aksiz solig‘i stavkalari kamaytirildi.

Shu o‘rinda joriy yilning 4-iyunida qabul qilingan «Bozor islohotlarini yanada jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Prezident farmoni ahamiyatini alohida ta’kidlash joiz. Ushbu hujjat O‘zbekistonning JSTga qo‘shilish maqsadida jiddiy amaliy qadamlar tashlayotganidan dalolat beradi. Xususan, bosqichma bosqich «O‘zmetkombinat» AJ, «O‘zikkilamchiranglimetall» AJ, «O‘zkimyoimpeks» MCHJ, «UzGasTrade» AJ kabi korxonalar uchun maxsus (eksklyuziv) huquqlar bekor qilinishi monopoliyalarning barham berilishiga, davlatning iqtisodiyotdagi aralashuvini minimallashtirishga qaratilgani bilan nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, Farmon bilan hukumat tomonidan imzonlangan barcha investitsiya bitimlari xatlovini o‘tkazish, davlat xaridlarining ochiqligi va shaffofligini ta’minlash uchun shaxsiy javobgarlik kuchaytirilishi kabi masalalar ham davlat manafaatlariga hamda korrupsiyaning oldini olishga xizmat qiladi.

O‘z navbatida, ushbu farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Qonunchilik palatasi tomonidan milliy qonunchiligimizni JST talablariga moslashtirish ishlarini jadallashtirish talab etiladi. Jumladan, «Davlat xaridlari to‘g‘risida»gi qonunda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga takliflarni baholashda foydalaniladigan imtiyozlar va preferensiyalar qayta ko‘rib chiqilishi zarur bo‘ladi.

Alohida qayd etish joizki, Yangi O‘zbekistonda hukumat 2030-yilgacha Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollar, Eksport hajmini 45 milliard dollarga yetkazish hamda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o‘zlashtirish kabi yuksak maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan. Bu esa yana bir bor O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lishi ushbu maqsadlarga erishishimiz uchun eng to‘g‘ri yo‘l ekanini ko‘rsatmoqda.

Kuting!

BAHODIR MAMATXONOV, partiya Markaziy kengashi raisi o‘rinbosari

KOREYA TAJRIBASI: O‘RGANADIGAN JIHATLAR BOR EKAN...

Kelgusi sonlarda

Munosabat

PREZIDENTNING

soha xodimlari bilan uchrashuvidan keyin qanday o‘zgarishlar ro‘y beryapti?

Jumanazar OTAJONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Keyingi olti-yetti yil mobaynida aholiga malakali tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar natijasi kundalik hayotimizda yaqqol sezilmoqda.

Buni aholiga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va oldini olish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini yangilash hamda kadrlar malakasini oshirish borasidagi natijalarda ham ko‘rish mumkin. Xususan, birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini kengaytirish, bosqichma-bosqich tibbiy sug‘urta tizimini joriy etish va tibbiy xizmatlar bozorida zamonaviy raqobat muhitini yaratish, shu asosda aholining kafolatlangan va sifatli tibbiy yordam olish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida Sirdaryo viloyatida sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasi amalga oshirildi.

Tibbiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, tibbiyot muassasalari faoliyatini ilg‘or xorijiy tajriba asosida yaxshilash, kadrlar salohiyatini oshirish, nodavlat tibbiyot tashkilotlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Prezidentimizning joriy yil 22-yanvardagi qarori bilan Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasida davlat muassasasi shaklida «Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi» loyiha ofisi tashkil etilgan edi.

21-may kuni esa Davlat rahbari Sog‘liqni saqlash loyihalari markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar va yangi takliflar bilan tanishdilar. Muloqot davomida birlamchi bo‘g‘in va tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish, davlat tibbiy sug‘urtasini joriy etish, dori-darmonlar xaridini tartibga solish borasida ishlab chiqilgan takliflar atroflicha muhokama etildi.

Qayd etish joiz, tez tibbiy yordam tizimini takomillashtirish borasida Toshkent shahrida tez tibbiy yordam mashinalari parki to‘liq yangilandi, tez yordam «koll-markazi» faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hozir shahar aholisiga 235 ta tibbiy yordam brigadasi xizmat ko‘rsatmoqda. Lekin tahlillar ushbu tizimni yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Chunki, ayni paytda poytaxtda tez tibbiy yordam chaqiruvlari soni 1 mln. 363 mingtani tashkil etmoqda. Shuning uchun ham chaqiruvlarni qabul qilish jarayonida ularni saralashni yo‘lga qo‘yish taklif etilmoqda. Bunda chaqiruv sabablarini aniqlash orqali «oddiy», ya’ni bemorning issig‘i chiqishi, yo‘talishi yoki boshqa — bevosita tibbiyot xodimining ishtirokisiz amalga oshirish mumkin bo‘lgan murojaat bo‘yicha «Tibbiy maslahat» shifokorlari guruhi tashkil etiladi va masofaviy maslahat berish yo‘lga qo‘yiladi. Qolgan chaqiruvlar esa tibbiy brigadaga yo‘naltiriladi.

Tez tibbiy yordam brigadalari bo‘yicha ham qator yangiliklar amalga oshiriladi. Ya’ni, feldsherlik-paramedik, shifokorlik, pediatrik, reanimatsion hamda psixiatrik brigadalar tashkil etiladi. Ma’lumki, chaqiruv sabablari aniqlanayotganda bemorning yoshi, kasallik alomatlaridan kelib chiqqan holda tibbiy brigadani yo‘naltirish bemor hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu yilning o‘zida Toshkent shahrida haydovchi va feldsher-paramedikdan iborat 47 ta hamda faqat feldsher-paramedikdan iborat yana 47 ta brigada tashkil etish, shuningdek, 69 ta pediatrik, 91 ta terapevtik, 24 ta reanimatsion va 4 ta psixiatrik brigadalar faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda.

Ana shunday sa’y-harakatlar natijasida chaqiruvlarga yetib borish vaqti 10-40 daqiqagacha qisqaradi. Eng muhimi, pediatrik brigadalarni tashkil etish orqali bolalarga uyda sifatli va samarali tez tibbiy yordam ko‘rsatiladi va shuning hisobiga shifoxonada o‘rinlar yuklamasi kamayadi. Hisob-kitoblarga qaraganda Toshkent shahridagi chaqiruvlarning 5 foizini «oddiy» chaqiruvlar tashkil etdi desak, ya’ni tibbiy maslahat berish orqali masala hal etilsa yiliga 150 mlrd. so‘m mablag‘ iqtisod qilinar ekan. Yoki feldsherlik-paramedik brigadalarga elektromobillar joriy etish natijasida 60 mlrd. so‘m tejaladigan bo‘lyapti.

Umuman tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish ushbu sohaga ilg‘or xorijiy tajribani keng joriy etish aholining bu ishlarni chuqur anglagan holda qo‘llab-quvvatlashiga ham bevosita bog‘liq. Shunday ekan, har birimiz ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan o‘z taklif va tavsiyalarimizni bildirishimiz, hech bo‘lmaganda o‘z sog‘lig‘imizga e’tiborli bo‘lib, sog‘lom turmush tarziga rioya etish orqali tibbiyot xodimlariga ko‘maklashishimiz lozim.

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
12-iyun, 2024-yil
№22 (1254) chorshanba

МУНОСАБАТ

> XIX асрнинг охири ва XX асрнинг 30 йилларигача бўлган давр ўзига хос дунё мамлакатларида маърифатчилик ҳаракати авж олган ҳамда янги жадидлар деган номда ҳаракат вужудга келган.

КЕЧМИШЛИ ХАЛҚНИНГ КЕЛАЖАГИ ҲАМ БОР

Ватан истиқлоли, унинг эрки ва озодлигини устувор билиш, халқимизни залолат ботқоғига етаклаётган турли иллатларга барҳам бериш, одамларни илмга, зиёга ошно этиш, илғор мамлакатларнинг фақат яхши ва ўрганишга арзигулик анъаналарини жамият ҳаётига татбиқ этиш маърифатпарвар боболаримизнинг олий мақсади эди.

Президентимизнинг "Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида"ги қарори ҳам айнан тараққийпарвар боболаримизнинг ҳаёти, эзгу ишларини чуқур ва атрофлича ўрганишда, тарғиб этишда катта аҳамият касб этади.

Тараққийпарвар зиёлилар миллатнинг уйғоқ қалбини, маънавий-маданий савиясини акс эттиради. Жадидчилик ҳаракатининг намояндалари ана шундай инсонлар бўлган. Уларнинг ғоялари, орзу-умидлари ватан, миллат эртасининг гуллаб-яшнаши учун хизмат қилмоғи лозим эди. Афсуски, давр, тузум уларнинг бу эзгу ниятларини амалга ошириш учун имкон бермади. Аммо жадидларнинг бугунимиз билан муштарак миллий ўзлик, истиқлол ва давлатчилик ҳақидаги ғоялари қайта кўз очмоқда. XIX асрда феодал қолоқлик Шарқни ғарблик мустабидларга қарам бўлишга олиб келгани сабаб миллий зулмдан қутилиш учун озодлик кураши асосий ижтимоий дастур ҳисобланарди. Озодлик, мустақиллик, эркка феодал қолоқликдан, жаҳолатдан қутулгандагина эришиш мумкин бўлган. Бунинг учун жамиятдаги мавжуд тузумни тубдан ислоҳ қилиш лозим эдики, "жадид"лар катта майдонга чиқди. Улар кимлар ва асосий мақсади нимадан иборат эди.

– XIX асрнинг охири ва XX асрнинг 30 йилларигача бўлган давр ўзига хос дунё мамлакатларида маърифатчилик ҳаракати авж олган ҳамда янги жадидлар деган номда ҳаракат вужудга келган, – дейди тарихчи олим Сулаймон Иноятов.

– Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, бизнинг ҳудудимизда 1860 йилдан 1930 йилларгача авж олган ҳаракатлардан бири ҳисобланади. Жадидлар дунё мамлакатларини кўриб, ҳайратга тушишади. Уларга нисбатан анча орқада қолган эканмиз, деган масалани кўтариб маърифатчиликка алоҳида эътибор беришади. Айнан маърифат орқали мамлакатнинг эркин, озод бўлиши масаласи кун тартибига кўтарилади. Шу билан бир қаторда сўз эркинлиги, ўзликни англаш, матбуот, театрни ривожлантириш ва дунёнинг ривожланган давлатларида ўқиш масаласига алоҳида эътибор қаратилади.

Президентимизнинг 2024 йил 30 майдаги "Жадидлар мероси давлат музейини ташкил этиш тўғрисида" ги қарорига кўра, Бухоро шаҳридаги Ҳовли Поён мажмуасида Жадидлар мероси давлат музейи ташкил этилади. Хўш, унинг аҳамиятли томони нимада?

– Дунёдаги биронта мамлакатда жадидлар музейи ташкил қилинмаган, – дейди тарихчи олим Сулаймон Иноятов. – Бу музей биринчилардан бўлиб Ўзбекистонда ташкил қилиняпти. Музей экспонатларида ҳар бир жадиднинг ўрни кўриниши ва бу соҳада махсус комиссиялар тузилиши ҳамда танловлар масаласи қўйилди. Шундай бир жой танландики музей учун – бу тарихий жой. Бу Бухоро шаҳрининг марказида жойлашган ва у ерда жуда кўп тарихий ёдгорликлар мавжуд. Туркияда ўқиб келган ва Бухорода биринчи мактабни ташкил қилган акаука Усмонхўжа ва Атаулло Хўжаевларнинг уйи танланди. Бу уй 1860-1870 йилларда қурилган.

Соҳа мутахассисларининг таъкидлашича, юртимизда бошланган бу ташаббус сабаб жадидлик ҳаракатига оид турли манба ва тарихий ҳужжатларни аниқлаш, тўплаш, саклаш, ўрганиш имкони пайдо бўлади.

– Бухоро XIX асрнинг охирида ислом оламининг энг муҳим илм марказларидан бири эди, – дейди туркиялик жадидшунос олим Исмоил Турк ўғли. – Ушбу давр жадидчилиги ҳам бу шаҳар доврўғини янада оширди. Ўзбекистон тарихида янги очилаётган музейнинг аҳамияти жуда катта. Туркий дунёда бундай ташаббус илгари сурилмаган эди. Бу қадамнинг Ўзбекистонда бошлангани бошқа давлатларга ҳам ўрнак бўлади, албатта. Кечмиши бўлмаган халқларнинг келажаги бўлмас, дейишади. Агар сиз кечмишда ўзбек халқи учун хизмат қилган инсонларни мактасангиз билингки эртанги шухратингиз тобора юксалади.

"Тилда, фикрда, ишда бирлик" деган эзгу ғоя билан майдонга чиққан жадид боболаримиз халқларимизни жаҳолат ва қолоқликдан олиб чиқиш, уларни ғафлат ботқоғидан қутқаришнинг асосий йўли – билим ва маърифатда, дунёвий тараққиётни эгаллашда, деб билдилар. Бу ҳозир ҳам моҳиятан теран мазмун касб этади. Ҳеч муболағасиз айтиш мумкинки, музей фондини бойитиб бориш ва экспозицияларни яратиш, шунингдек, маданий-маърифий ҳамда илмий-тадқиқот фаолиятини амалга ошириш келгуси авлодларнинг бой маънавий меросимиздан фойдаланиб, аждодларга муносиб ворис бўлишига хизмат қилади.

Зариф КОМИЛОВ,
ЎзА мухбири

✓ Халқаро анжуман

ХИТОЙЛИК «ПРОФЕССИОНАЛ»ЛАРДАН

ЎРГАНСАК БЎЛАРКАН

Кейинги йилларда рақобатнинг инновацион технологиялар асосида шиддатли тус олаётгани ишлаб чиқаришни такомиллаштириш, талаб ва таклиф мувозанатини барқарор сақлашдек мураккаб вазифаларни кун тартибига қўймоқда. Бу, энг аввало, профессионал таълимни ривожлантириш, замонавий меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган салоҳиятли кадрларни тайёрлашга бўлган эҳтиёжни ошириляпти. Ўзбекистонда ҳам бу борада янги ташаббусларнинг рағбатлантирилаётгани қувонарли ҳол, албатта.

Айни пайтда мамлакатимизда 700 га яқин профессионал таълим муассасалари, 20 дан ортиқ «Ишга марҳамат» мономарказлари фаолият кўрсатаётир. Қайд этилишича, уларда деярли 800 та касб ва мутахассислик ҳамда 10 га яқин хорижий тиллар ўргатиляпти. Бир вақтда ҳам ўқиш, ҳам ишлаб даромад топиш имконини берадиган «дуал таълим» шакли жорий этилгани эса соҳада туб ўзгаришларга киришилганини кўрсатади.

Албатта, соҳада ютуқлар билан бирга камчиликлар ҳам етарли. Хусусан, мутахассислар таъкидлаганидек, айрим таълим дастурлари ҳаёт талабига уйғун эмас. Профессионал таълим ўқувчиларини ўзига етарлича жалб эта олмаётгани натижасида мавжуд қувватлардан самарали фойдаланилмаяпти. Мономарказлар ҳам ўрта бўғин кадрларига бўлган эҳтиёжни тўлиқ қондира олмаяпти. Касбий таълимнинг саноат билан етарлича интеграциялашмагани, Ташқи меҳнат миграцияси агентлиги билан профессионал таълим ўртасида ҳамкорлик яхши йўлга қўйилмагани эса соҳанинг замон билан ҳамнафас ривожланишига тўсиқ бўлмоқда.

Шундан келиб чиқиб, Президентимиз томонидан 2023 йилнинг 4 октябрида ўтказилган танқидий йиғилишда касблар ва профессионал таълим классификаторларини босқичма-босқич янгилаб, халқаро стандартларга мувофиқлаштириш, хорижий таълим дастурларини жорий этиш, мономарказларда касбга ўқитиш сифатини яхшилаш, битирувчилар малакасининг ички ва ташқи бозорда тан олинишини таъминлаш бўйича масъул идораларга тегишли топшириқлар берилган эди.

Албатта, профессионал таълимда хориж тажрибасини ўрганиш ва фойдали жиҳатларини амалиётга жорий этиш замон талаби. Мамлакатимизда ҳам бу борадаги ҳамкорлик кенгайиб бораётгани диққатга сазовор.

Ана шундай ҳамкорлик келишувлари асосида 8-21 май кунлари Хитойда «Бир камар, бир йўл» лойиҳаси мамлакатлари учун касбий таълим бошқаруви» мавзусида халқаро семинар бўлиб ўтди. Ўнга яқин давлат вакиллари иштирок этган тадбирда профессионал таълимни ривожлантириш орқали рақобатбардош кадрлар тайёрлашга кўмаклашишни устувор вазифа деб билган «Миллий тикланиш» партияси вакиллари ҳам иштирок этдилар.

Маълум бўлишича, Цзянси хорижий тиллар касб ҳунар коллежи семинар ташкилотчиси бўлиб, ушбу муассаса хорижий тиллар, ташқи иқтисодий ва савдо йўналишида мутахассислар тайёрлайдиган етакчи илмий маскан ҳисобланади. Коллеж икки йил кетма-кет Хитойнинг энг яхши 50 та халқаро касб-ҳунар коллежлари руйхатига киритилган. Коллежда ҳозирда 15 мингдан ортиқ талаба таҳсил олади ва 11 та хорижий тил ўргатилади. Шунингдек, бу ерда халқаро савдо, электрон тижорат, бухгалтерия ҳисоби ва логистика менежменти каби йўналишлардан иборат 50 та мутахассислик бўйича ўқувлар йўлга қўйилган.

Семинар иштирокчилари бир нечта ўқув юртларида ҳам бўлиб, дарс жараёнлари, профессор-ўқитувчилар ҳамда талабалар ҳаёти билан танишдилар.

Биз эса ўз навбатида Ўзбекистондаги ўзгаришлар, жумладан, таълим ислоҳотлари ва бу борада қонунчиликдаги ўзгаришлар ҳақида маълумотлар бердик. Миллий профессионал таълим тизими ҳақида тақдимот ўтказиб, янги таълим стандартлари ва технологияларини жорий этиш тажрибаси билан ўртоқлашдик ҳам.

> БУГУН ЗАМОНАВИЙ МЕҲНАТ БОЗОРИ ТАЛАБЛАРИДАН КЕЛИБ ЧИҚИБ, ЯНГИЧА ЁНДАШУВЛАРГА ТАЯНГАН, БИЛИМ ВА КЎНИКМАЛАРНИ БИР НУҚТАДА БИРЛАШТИРА ОЛАДИГАН ТИЗИМГИНА МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТГА КУЧЛИ ТАЯНЧ БЎЛА ОЛАДИ.

Қайд этилишича, кейинги йилларда Хитойда касбий таълимга давлат аҳамиятидаги масала сифатида қаралмоқда. 2022 йилда «Касбий таълим тўғрисида»ги қонуннинг янги таҳрирда қабул қилиниши соҳадаги катта ислоҳотларга сабаб бўлган. Натижада сўнгги уч йилда касбий таълим қамрови кескин ошган ва Хитой бу йўналишда дунё пешқадамига айланган. Хусусан, 2022 йили 1521 та олий касб-ҳунар мактаби фаолият юритган ва ўқувчилар қамрови 5,46 миллион нафарни ташкил этган бўлса, ҳозир 9752 та ўрта касб-ҳунар мактаби бўлиб, уларда 17,8 миллиондан ортиқ ўқувчи таълим олмоқда.

Хитойнинг бу йўналишдаги тажрибаси мамлакатда кадрият ва тамойилларни асраш ҳамда сингдириш орқали ҳозирги даврни узоқ цивилизация билан боғлашга алоҳида эътибор қаратилаётганини кўрсатяпти. Биламизки, Хитой дунёдаги энг йирик саноат мамлакати ҳамдир. Шу билан бирга ушбу мамлакат илғор техник ва касб-ҳунар таълимига ҳам эга экан. Бунда аниқ методология асосида иш олиб борилаётганини алоҳида таъкидлаш жоиз.

Айтиш жоизки, касб-ҳунар коллежлари, институт ва университетлар ўртасида илмий-тадқиқот, маҳсулот ишлаб чиқариш, ишчи-хизматчилар тайёрлаш, шунингдек, ихтисослашган таълим марказларида ишлаб чиқариш линияларини очиш орқали компания ва саноат муассасалари билан мустаҳкам ҳамкорлик ўрнатилган. Ҳатто глобал даражадаги компаниялар билан ҳам узвий алоқалар йўлга қўйилган. Чунки мамлакат миллий иқтисодиётини ривожлантиришда техник ва касб-ҳунар таълимининг аҳамияти беқиёс бўлиб, бу саноат компаниялари ва тижорат муассасалари учун энг асосий пойдевор дея эътироф этилади. Бу йўналишда иш олиб бораётган саноат муассасалари ва компанияларига қулайликлар яратиш, хусусан, солиқларни камайтириш, кредитлар фоизини пасайтириш учун эса рағбатлантириш механизмлари ҳам ишлаб чиқилган.

Яъни, ҳукумат ҳунармандлар, профессионаллар ва техникларнинг ижтимоий мавқеини яхшилаш, юқори қадриятли малакага асосланган жамият ғоясини илгари суриш доирасида зарур чораларни кўрмоқда. Шунингдек, мамлакатда IT ва сунъий интеллект ютуқларидан ўқув жараёнини яхшилаш, талабаларга илмий материалларни чуқур ва қизиқарли тарзда тақдим этиш, шунингдек, ўқитиш харажатларини оддий таълимга нисбатан камайтириш учун кенг фойдаланилмоқда. Шу жиҳатлардан, Хитой модели ривожланаётган саноат, техник ва касб-ҳунар таълими тизимида мамлакатлар дуч келаётган кўплаб муаммоларни ҳал қилишда илғор модел сифатида ўзини намоён қиляпти, десак хато бўлмайди.

Ана шуларни инобатга олиб, бизда ҳам Хитойнинг таълим жараёнларини ташкил қилиш ва бошқариш билан боғлиқ тажрибаларини миллий ОТМларга мослаштириб, амалиётга жорий этсак, фойдадан холи бўлмасди.

Хулоса қилиб айтганда, бугун замонавий меҳнат бозори талабларидан келиб чиқиб, янгича ёндашувларга таянган, билим ва кўникмаларни бир нуқтада бирлаштира оладиган тизимгина миллий иқтисодиётга кучли таянч бўла олади. Буни биз Хитой тажрибаси мисолида кўрдик.

Абу Муслим УСМАНОВ,
партия Марказий кенгаши бўлим бошлиғи, семинар иштирокчиси

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
12-iyun, 2024-yil
№22 (1254) chorshanba

ЯНГИ ЛОЙИҲАГА «СТАРТ» БЕРИЛДИ

Эндиги навбат бошқа тилларда сабоқ бериладиган мактабларга ўзбек тилидаги китоблар тарқатишга!

Ўзбек тилидаги ўқув ва бадиий адабиётлар ортилган "карвон" Тошкент шаҳри ва Тошкент вилояти мактабларидаги кутубхоналарга кириб борганида лойиҳага ўз вақтида старт берилганини англаб етдик. Қайд этиш жоизки, ушбу акция доирасида Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва маҳаллий кенгаш депутатлари ҳамда партия фаоллари томонидан Тошкент шаҳри ва Тошкент вилоятидаги 20 га яқин мактабларга жами 2000 дан ортиқ ўзбек тилидаги ўқув ва бадиий адабиётларни тақдим этиш режалаштирилган эди.

Акциянинг биринчи босқичи – 5-6 июнь кунларида дастлаб Тошкент вилоятининг Юқори Чирчиқ туманидаги қозоқ ва корейс, Паркент туманидаги қирғиз ҳамда Оққўрғон туманидаги туркман тилига ихтисослашган мактабларга партия совғалари – китоблар тўплами топширилди. Кейин карвонимиз пойтахтнинг Миробод ва Яккасарой туманларидаги рус тилига ихтисослашган мактабларга кириб борди.

Акция доирасида ўқув йилини аъло баҳоларга тугатган китобсевар ўқувчиларга партиянинг эсдалик совғалари ҳам топширилди.

Мухлиса ЭРГАШЕВА тайёрлади.

ЖАДИДЛАР ВА СУРХОНДАРЁЛИК ЁШЛАР «ЮЗЛАШТИРИЛДИ»...

Партиянинг Сурхондарё вилоят Кенгаши ташаббуси билан жойларда «Жадидлар – янги ҳаёт қуйчилари» мавзусида маънавий-маърифий тадбирлар бўлиб ўтмоқда.

Хусусан, Бойсун туманидаги 57-мактабда жадидчилик ҳаракатининг пайдо бўлиши, ҳаракатнинг мақсадлари, орзу-интилиш ҳамда жадидларнинг жасоратлари ҳақида ҳикоя қилувчи тадбир бўлиб ўтди.

– Жадид боболаримиз сафида етук олимлар, саноат ва зироатчилик соҳасининг замонавий мутахассислари, маданият ва фан арбоблари бўлган, – дейди халқ депутатлари Бойсун туман Кенгаши депутати, Таълим ва фан ходимлари касаба уюшмаси туман кенгаши раиси Нормаҳмад Шарипов. – Улар асосан халқни асрий қолоқликдан уйғотишга, сиёсий-маърифий билимларини оширишга интилдилар. Шунингдек, улар янги усул мактаблари тармоғини кенгайтириш, қобилиятли ёшларни чет элларга ўқишга юбориш, турли маърифий жамиятлар ва театр труппалари тузиш, газета-журналлар чоп этиш ва одамларнинг ижтимоий-сиёсий онгини юксалтиришга хизмат қилгувчи ғояларни илгари сурдилар.

Тадбирда Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдуқодир Шукурий (Шакурий), Ажзий, Мунавваркори Абдурашидхонов, Абдулла Авлоний, Мажид Қори Қодирий ва Убайдуллахўжа каби тараққийпарвар аждодларимизнинг жаҳолатга қарши қандай курашганлари, миллат шаънини ҳимоя қилишда нималарга эътибор берганлари ҳақида атрофлича маълумотлар берилди. Тадбир якунида ўқувчи-ёшлар томонидан кўргазмали чиқишлар намойиш этилди.

Улуғбек ХЎЖАҚУЛОВ,
партиянинг Сурхондарё вилояти Кенгаши раиси ўринбосари

✔ Мулоҳаза

«Х» авлоддан - «авлодга»

Бизлар – бугун замонавий ёшлар таъбири билан айтганда "Х" авлод эмасмиз! XX асрнинг 50-80-йиллари орасида туғилганлар – Худо ёрлиқлаган инсонлармиз. Болалигимизда велосипедларимизни учириб ҳайдардик, аммо махсус ҳимоя шлеми киймасдик. Мактабга биринчи кунданоқ ёлғиз боришдан қўрқмасдик, чунки кўчадаги ҳар қандай ёши улуғ инсон бизнинг ҳимоячимиз эди. Дарсдан чиққач, тўйгунча ўйнардик. Шунданми, кундузлари телевизор кўрмасдик.

Бирор нарсадан жаҳлимиз чиқса, оддий водопровод суви ёки ариқми-анҳор сувидан ичиб, ҳовуримизни босардик. Қишлоқларда сомон ташиш ёки ўт-ўлан ўришга борсак, сувимиз тугаб қолса, ҳовуз сувларидан ҳам ичаверардик....

Тўрт киши битта стаканда сув ичсакда, жирканмасдик, касал бўлмасдик. Мабодо касалликка чалинсак, асосан халқ табобати билан даволашарди. Уйимизда исириқ сақланар, ҳовлиларда ғуж-ғуж райҳон ўсарди. Ортиқча семизлик нималигини ҳатто эшитмаганмиз.

Ўзимизча ўйинчоқлар ва қўғирчоқлар ясардик, қўғирчоқ ва китобларимизни ўртоқларимиз билан баҳам кўрардик. Ота-оналаримиз бизга кечалари эртак, ибратли ҳикоялар ўқиб беришарди. Ҳотамитой, Муқбил тошотар, Алпомиш, Гўрўғлиларни ўшанда таниганмиз. Қариндош, таниш-билишларникига таклифномаларсиз ҳам боравердик, мезбонлар бизларни оддий ва камтарона дастурхон билан сийлашарди. Хотираларимиз ҳам оқ-кора тасвирларга муҳрланган бўлса-да, аммо ёркин эди, чиройли эди. Оилавий альбомларимизни соатлаб томоша қилардик, аждодларимиз хотирасини ҳурмат қилиб эслардик. Уша суратларни ногоҳ кўриб қолсак, қадрдон инсонлар сиймоси билан дийдорлашувдан дилларимиз орзикиб, юракларимиз энтикиб кетарди. Энг муҳими, китобларни асло ташлаб юбормасдик,чунки китобларга навбатда турардик, кўпинча олган китобларимизни овоз чиқариб, ҳузур қилиб ўқирдик.

Бизлар оилавий сирларимизни бировларга достон қилмасдик, бировларнинг ҳаётини айюҳаннос солиб мухокама ҳам қилмасдик.

Чунки, бизнинг авлод бошқаларга қараганда андишали эди. Ота-оналарини жим эшитган, уларга жону дили билан қулоқ тутган авлодмиз, албатта. Бундан ташқари, фарзандларини ҳам вазмин эшитишга мажбур бўлган авлод ҳам бизмиз.

Биламизки, ВАҚТ бир нафас ҳам тўхтамайди ва ортига қарамайди. У фақат яхшиликларни, эзгу ишларни ўзи билан бирга олиб юради. Ҳасад, тухмат ва ёвузликларни эса топтаб кетади. Аммо бизларнинг сонимиз чекланган... Бизлар тўхтовсиз камайиб боряпмиз. Бизлардан баҳраманд бўлинг, билганларимиздан ўрганиб қолинг. Изсиз йўқолиб кетмаслигимиз учун тириклигимизда қадримизга етинг!

Ўрмонали ҚУРБОНАЛИЕВ,
Ширин шаҳри.

Сизга ўхшаган она бўламан!

Бир куни онамни қаттиқ ранжитиб қўйдим. Улар ички бир қайғу билан ўксиниб қарадиларда:

– Она бўлсанг мени тушунарсан, – дедилар.

Ўсмир эдим, ақлсиз эдим, қайғуларига парво қилмадим:

– Мен асло сиздай она бўлмайман!

Онам жавоб қайтармадилар ва индамай ошхона томон юриб кетдилар. Аслида гапим тугамай, пушаймон бўлиб бўлгандим, лекин начора, тарбиясиз ёй камонни тарк этиб бўлганди. Кейин азобда кечагина сотиб олган китобини олиб, ўзимни чалғитмоқчи бўлдим. Китоб ўқиётиб ухлаб қолибман. Орадан қанча ўтганини билмайман, дадамнинг овозидан уйғониб кетдим. У киши онам билан нималарнидир гаплашардилар. Атрофга оқшом пардасини тортган маҳал эди. Кимдир устимга ёпинчиқ ташлаганини сездим. Кейин яна ухлаб қолибман. Бироз ўтиб уйғондим. Ўрнимдан туриб чироқни ёқдим, ётоғим бошида бир бўлак кекс, ёнида долчинли сут ва бир хат турарди: "Сен мендай она бўлмайсан, мендан ҳам яхши она бўласан!" Бошимдан қайноқ сув қуйилгандай бўлди. Қандай қилиб онамга шундай дея олдим?!

Лекин яна беъмани қайсарлик онамдан узр сўрашимга изн бермади. Аслида тортишиб қолганимизнинг сабаби ҳам бошимнинг устида турган мана шу кекс эди. Мен онамдан эртанги кунги ўқув йили хайрлашув маросимига кекс тайёрлаб беришни сўрагандим. Онам ишлари кўплигини айтиб, тайёрлаб беролмасликларини билдиргандилар.

Шу пайт дадам ёнимга келдилар. Кўз ёшларимни аста артдилар:

– Нималар бўлиб ўтганини биламан, сенга бир сирни очаман, лекин зинҳор онангга айтмайсан, хўпми?.

– Эртага маош оладиган куним. Уйда ёғ билан ун тугаб қолган экан. Онангдан бир кунгина амаллаб туришини сўрагандим. Сенга эса кекс учун масаллиқ йўклигини айтолмабди. Қўшнилардан сўрашга эса ийманибди. Лекин қаттиқ хафа бўлганингни кўриб, баққолга қарзга ёздириб олишга мажбур бўлибди.

Бу гапларни эшитиб, кўксимга санчиқ кирди. Онамнинг ёнига қараб чопдим. Ҳўнграб-ўксиниб йиглардиму, бир сўз айтолмасдим. Амаллаб ўпкамни босдиму, шу сўзларни айта олдим холос:

– Мен сизга ўхшаган она бўламан! Ўз қайғуимни фарзандларимга билдирмайман, кези келганда киприк қоқмасдан ҳар қандай фидойиликдан қайтмайман! Ва, фарзандларимни сиз мени севгандек севаман, онажон!

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
12-iyun, 2024-yil
№22 (1254) chorshanba

TAMADDUN

O'zbekiston zaminida umumiy tarixning shonli sahifalari bitilgani, jahon ilm-fani va madaniyatiga unutilmas hissa qo'shgan Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi mutafakkirlar, muqaddas Islom dini tarixida o'chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Bahouddin Naqshband singari buyuk allomalar, turkiy dunyoni qalam bilan birlashtirgan Alisher Navoiy singari ulug' shoirlar nafaqat o'zbek xalqi, balki barchaning faxru iftixoridir.

Shavkat MIRZIYOYEV

(Boshlanishi 1-sahifada)

Muqimjon QIRG'IZBOYEV,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, siyosiy fanlar doktori, professor,

BIRINCHI RENESSANSDAN

Ba'zi olimlar «Bayt ul-hikma»ga xalifa Horun ar-Rashid (786-809- yillar hukmronlik qilgan) asos solgan, deb yozsa, ba'zi manbalarda bu joy xalifa Abdulloh al-Ma'mun (813-833-yillarda hukmronlik qilgan) nomi bog'lanadi. Buyuk britaniyalik sharqshunos de Leysi (1872-1957-yy.) «Bayt ul-hikma» al-Ma'mun tomonidan qurilgan», degan fikrni ma'qullaydi. Bu fikrga Maks Meyerxof va Uilyam Jeyms Dyurant kabi mashhur olimlar ham qo'shiladi. Lekin boshqa ma'lumotlarda, «Bayt ul-hikma» al-Ma'mun davrigacha ham mavjud bo'lganligidan darak beriladi. Lekin, afsuslar bo'lsinkim, «Bayt ul-hikma» 1258-yilda mo'g'ullar Bog'dodni qamal qilganida vayron bo'lgani sababli bu haqda juda oz arxeologik va yozma manbalar saqlanib qolgan.

«Bayt ul-hikma»da yunon, hind, suryoniy, arab va fors tillarida 400 ming jild qo'lyozma kitoblar yig'ilgan edi. Al-Xorazmiy o'sha kitoblardan foydalanib, hind usulida «ilmi hay'at»ga (astronomiya) oid «Ziji Xorazmiy» asarini yozgan. Bu davrda Bog'dod ilmiy tarjimalar markazi sifatida mashhur bo'lgan, xususan, tarjima ishlarida turli millat vakillari qatori Markaziy Osiy olimlaridan Ahmad al-Farg'oniy, Muhammad al-Xorazmiy, Said Javhariy va Ahmad ibn Abdulloh Marvaziylar ham faol ishtirok etishgan. Ular asosan nafis va murakkab bo'lgan xorijiy til tushunchalarini aynan ifodalashga qobil bo'lgan arab terminologiyasini yaratishga katta hissa qo'shganlar.

XORAZMSHOH MA'MUN AKADEMIYASI

O'rta asrlarda mashhur bo'lgan yana bir ilm markazi Xorazmshoh Ma'mun akademiyasi edi. Xorun ar-Rashidning o'g'li Ma'mun (813-833-yillar xalifalik kilgan) davrida Ahmad Farg'oniy, Muhammad Xorazmiy, Homid Marvarudiy, Abbos Javhariy, Ahmad Marvaziy, Sanod Yahudiy, Banu Muso «aka-ukalar», Muxammad, Axmad va al-Hasan Xorazmiylar, Ibodiy, Yoqub Kindiy, Abdulhasan Xarroniy va boshqalar Marvda, Bog'dod va boshqa Arab mamlakatlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Xorazmshoh Ma'mun davrida Urganch ilm-fan markaziga aylanib, unda Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Masixiy va yana boshqa 500 dan ortik olimlar ilmiy tadqiqotlar bilan mashg'ul bo'lganlar. Bu ikki ilmiy markazla r– Bog'dod va Urganchdagi «Bayt ul-hikma"lar o'rtasida deyarli 180 yillik farq bor edi.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al-Xorazmiy (783-850-yy.)

Jahonga mashhur olim, birinchi Rennesansning yirik vakili - Muhammad al-Xorazmiy o'z ilmiy kashfiyotlari asosida «Algebra» fanini yaratdi. Bu so'z olimning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» risolasi nomini qisqacha ifoda etish asnosida paydo bo'lganini ta'kidlash joiz. Uning arifmetika risolasi asosan hind raqamlariga asoslandi. Al-Xorazmiy yaratgan o'nlik pozitsion hisoblash tizimi va undagi amallar Yevropaga ham tarqaladi va «Al-Xorazmiy» nomi «algoritm» shaklida fanga kirib keladi.

Al-Xorazmiyning «Zij» asari esa astronomiya fanining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda al-Ma'mun (809-yildan) dastlab xalifa Xorun ar-Rashidning noibi sifatida, 813-yildan boshlab esa yuksak xalifalik maqomida faoliyat yuritgan. 819-yilda poytaxtini Bag'dodga ko'chirgan xalifa Marvda hukmronlik qilgan davrida al-Xorazmiy va yana boshqa Movarounnahr va Xuroson olimlarini o'z saroyiga taklif etadi.

Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda Xorazmiydan tashqari Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar - Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oniy, Shabash al-Marvaziy, Xolid ibn Abdumalik al-Marvarudiy, Forobdan esa Abul Abbos al-Javhariy va boshqalar ilmiy faoliyat olib borganlar.

IX asr boshida Bag'dodda al-Ma'munning otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz – «Bayt ul-hikma»ning ishlash doirasi ancha kengayadi, xususan, uning tarkibida ikkita rasadxona - birinchisi 828-yilda, Bag'dodning ash-Shammosiya mavzesida, ikkinchisi, 831-yilda Damashq yakinida Kasiyun tog'ida barpo etiladi. Bu rasadxonalar faoliyatini Markaziy Osiyo va xurosonlik olimlar boshqarganini ta'kidlash mumkin. Masalan Al-Xorazmiy bu rasadxonalar faoliyatining kuzatuvchisi edi.

Al-Xorazmiy bilan bir qatorda «Bayt ul-hikma» tarjimonlari ichida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn al-Bitriq, Hunayn ibn Is'hoq va Kusto ibn Luqo al-Ba'albakkiy kabilar ham tadqiqotlar olib borganlar. Shu bilan birga, Bag'dodda Markaziy osiyolik olimlardan - mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg'oniy yangi kashfiyotlar qiladi. O'sha paytda marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag'dodning ash-Shammosiya rasadxonasi boshlig'i edi. U rasadxonadagi ishlar haqida «Bayt ul-hikma»ning mudiri al-Xorazmiyga hisobot berib turgan. 831-yili – Yahyo vafotidan keyin esa al-Xorazmiy bu rasadxonani o'zi boshqara boshlaydi. Qayd etish joizki, bizga Yahyoning astronomiyaga oid «Zij al-mumtahan» («Sinalgan zij») asari yetib kelgan. Damashqdagi rasadxonani boshqargan Xolid ibn Abdumalik al-Marvarudiy ham «Zij» nomli asar yozgan bo'lib, u Yer meridianining uzunligini o'lchash ishlariga ham boshchilik qilgan.

Marvlik astronom va matematik Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan mashhur Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bag'dodda al-Xorazmiy bilan hamkorlik qiladi. Uning ham ikkita «Zich» tuzganligi haqida ma'lumotlar bo'lib, bu asarlardan g'arbdagi O'rta asr astronomlari keng foydalanganlar. Masalan, Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy tangens va kotangens, kosekans kabilarning funksiyalarini aniqlab, ularning jadvallarini tuzgan.

Al-Xorazmiy bilan Bag'dodda, keyinchalik «Bayt ul-hikma»da Markaziy osiyolik va xurosonlik olimlardan tashqari Suriya, Iroq, Eron va boshqa hududlardan kelgan olimlar ham ilmiy faoliyat olib borishgan. Lekin, ular orasida Markaziy osiyolik olimlar ancha salmoqli o'rin egallagan edilar. Masalan, ana shunday yirik olimlardan biri Al-Xorazmiy 850-yilgacha yashab, Bag'dodda vafot etadi.

Al-Xorazmiyning 20 dan ortiq asarlaridan (albatta, bu faqat aniqlanganlari) faqat 10 tasi hozirgacha yetib kelgan, xolos. Ular – «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» (Algebra), «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» (arifmetik asar), «Kitob surat-ul-arz» (jug'rofiga oid asar), «Zij», «Asturlob bilan ishlash haqida kitob», «Asturlob yasash haqida kitob», «Asturlob yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola» kabi asarlardir. Bularning to'rttasi arab tilida, bittasi al-Farg'oniyning asari tarkibida, ikkitasi esa lotincha tarjimada saqlanib qolgan, yana uchtasi hali topilganicha yo'q.

Xorazmiyning algebraga oid risolasi «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala» deb nomlanib, undagi «al-jabr» va «al-muqobala» so'zlari «to'ldirish» va «ro'para qo'yish» ma'nosini anglatadi, ya'ni bu – o'rta asrlar algebrasining ikkita asosiy amali demakdir. «Al-jabr» so'zi lotincha transkripsiyada «algebra» shaklida yoziladi hamda al-Xorazmiy asos solgan yangi fan sifatida dunyoga tarqalfdi.

O'z kashfiyot va ixtirolari bilan jahonga mashhur bo'lgan Al-Xorazmiy asarlari ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingani uchun ham hozirda dunyoning eng yirik kutubxonalarida saqlanmoqda. Bugun hatto al-Xorazmiy nomi bilan turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar) davlat mukofoti va medallari ta'sis etilgan, yuzlab ko'cha hamda muassasalar uning nomi bilan ataladi.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniy (797-861-yy.)

Afsuski, Ahmad al-Farg'oniyning Farg'onalik ekani, Quvada tug'ilganidan boshqa ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Manbalarda qayd etilishicha, Al-Farg'oniy 861-yilda Kohira tashqarisidagi Rauzo orolida Nil daryosining suvi sathini ko'rsatib turuvchi nilometrni (o'lchash uskunasini) ixtiro qilib, undan foydalangan. Ba'zi manbalarda uning 865-yili vafot etgani aytiladi. Olimning Al-Ma'mun bilan uchrashgan payti – 819-yilga to'g'ri kelib, o'shanda u 20-25 yoshlarda bo'lgani haqidagi ma'lumotni nazarda tutsak, uni 797-yili tug'ilgan deyish mumkin bo'ladi. Olimlarning hisoblashlaricha u 67 yoki 68 yil umr ko'rgan.

Ahmad al-Farg'oniy yaratgan kashfiyotlar – yerning baland va pastliklarini, yulduz turkumlarining ham balandu pastligini o'lchaydigan, Quyosh va Yulduzlar harakatlaridan kelib chiqib, vaqtni aniqlaydigan astrolyabiya (ba'zi manbalarda usturlob, asturlob) va «Geometrik kvadrat» – turli burchaklar va masofalarni o'lchaydigan asboblar bo'lgan.

«Bayt ul-hikma»da taxminan 840-yilgacha ilmiy izlanishlar olib borgan Ahmad al-Farg'oniy keyinchalik, Damashq va Qohirada ilmiy va amaliy tadqiqotlarini davom ettiradi. Shundan keyin uning dovrug'i ko'plab mamlakatlarga yoyildi. XII asrdayoq ispan olimlari - kremonlik Gerardo, sevilyalik Ioann Farg'oniyning «Yulduzlar ilmi usuli kitob»larini arabchadan lotin tiliga tarjima qildilar. XVI asrga kelib esa Yevropa astronomlari uyushmasi Oydagi kraterlarning biriga «Alfraganus» (Alfraganus) nomini berdilar. Ya'n, Al-Farg'oniy Yevropada aynan shu nom bilan shuhrat qozondi.

Aytish joizki, Al-Farg'oniyning lotin va boshqa g'arb tillariga tarjima qilingan asarlari G'arbiy Yevropa universitetlari va boshqa ta'lim muassasalarida astronomiya fani sifatidagi asosiy qo'llanma vazifasini o'tab keldi. Ma'lumki, Amerikani kashf etgan ispan olimi Xristofor Kolumb 1492-yilda «Santa Mariya» va yana uchta kema xamrohligida okeanlardan suzib o'tishda al-Farg'oniy xaritasidan foydalangan. Yevropa Renessansini boshlab bergan Aligeri Dante esa o'zining «Bazm» traktatida Ibn Sino va al-G'azzoliy bilan birga al-Farg'oniyga hamdu-sanolar bag'ishlaydi.

Ahmad al-Farg'oniyning asosiy astronomik asari bo'lgan «Kitob al-harakat as-samoviya va javomi' ilm an-nujum» («Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi») deb nomlangan. Olimning astronomiya faniga qo'shgan muhim hissasi – bu shaharlarning jug'rofiy koordinatalari, osmon ekvatori va ekliptika orasidagi burchak, Quyosh va Oyning aylanish davrlari, ularning tutilishi, Quyosh, Oy va boshqa sayyoralar harakatlarini tavsiflariga aniqliklar kiritgani edi. Ahmad al-Farg'oniy bu kabi harakatlarning handasaviy (geometrik) modelini takomillashtirib, qo'zg'almas yulduzlarning o'lchamlari, ularning ekliptik koordinatalarini hisoblashda yuz berayotgan muammolarning yechimini topadi.

Shu bilan birga olim Quyosh soatlarini kashf etib, ular vositasida sayyoralar orasidagi masofalarni aniqlab chiqadi. Xususan, Mars hajmining Yerning 8/15 qismiga, Yerdan Yupiter 95, Saturn esa 90 barobar katta ekanligini aniqlaydi. Bu o'lchov ko'rsatkichlarining hozirgi davrdagi ko'rsatkichlardan unchalik farq qilmasligi esa Al-Farg'oniyning o'z davrining eng peshqadam olimlaridan ekanini ko'rsatadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, Xalifa al-Mutavakkil 861-yili al-Farg'oniyni Nil daryosida yuz berib turadigan keskin o'zgarishlarni o'rganish uchun Misrga yuboradi. U o'sha yerda Nil daryosi oqimi sathidagi o'zgarishlarini kuzatishga imkon beradigan «Miqyas an-javdid» deb ataladigan yangi asbob - nilomerni kashf qiladi. Nilomer daryo suvi sathini o'zgarib turishini o'lchaydigan asbobdir. Shu asnoda suv sathining ko'tarilib pasayib turishi – suv hajmining o'zgarishi qonuniyatiga aylangan. Ahmad al-Farg'oniy yulduzlar harakatini ham muntazam kuzatish vositasida Nil daryosi sathidagi o'zgarishlarni daryodan uzoq-yaqin masofada joylashganiga qarab yerlar hosildorligi jadvalini tuzadi va shu jadvalga asoslangan holda soliq tizimidagi o'lchovlarni aniqlab beradi. O'shandan beri Nil daryosidan sug'oriladigan dehqonchilikning qanday bo'lishi oldindan bashorat qilina boshlanadi. Hatto ushbu asbob bilan ocharchilik yoki to'qchilik bo'lishini ham oldindan bilish imkoniyati yaratiladi.

Al-Farg'oniy olimlar ichida birinchilardan bo'lib yerning shar shaklida ekanligini ham ilmiy jihatdan asosladi. Matematik usullar bilan yilning eng qisqa (22-dekabr) va eng uzun (22-iyun) kunini aniqlab, quyoshda dog'lar mavjudligini ko'rsatdi, shuningdek, 832-yildagi quyosh tutilishini oldindan bashorat qildi.

Ammo afsuslar bo'lsinki, Al-Farg'oniyning yuzta asaridan faqat sakkiztasigina bizgacha yetib keldi. U «Yulduzlar ilmi usuli kitobi» asarida I asrda yashagan mashhur Klavdiy Ptolemeyning astronomiya sohasida asosiy ensiklopediya sifatida tanilgan «Almagast» asaridagi hatoliklarni ham to'g'irlaganini aytish joiz. «Yulduzlar ilmi usuli kitobi» yana yettita nomda tanilganini ham ko'pchilik e'tirof etadi. Shuning uchun ham kitob qo'lyozmalari hozirgi davrda Bag'dod, Dublin, Qohira, Layden, Sankt-Peterburg, Moskva, Oksford, Parij, Prinston, Istanbul, Tunis, Fes kabi yirik shaharlarlardagi kutubxonalarda saqlanyapti.

Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn O'zlug' Tarxon Forobiy (873-950-yy.)

Forobiy 873-yilda Sirdaryo sohilidagi Forob qishlog'ida turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida tug'ildi. U boshlang'ich ta'limni O'trorda oldi, keyin o'qishni Toshkent, Samarqand va Buxoroda davom ettirdi. Shundan keyin u ilm istab dunyoning turli mintaqalaridan kelgan talaba va olimlar to'planadigan, birinchi Renessansning ilm markazi bo'lgan Bag'dodga yo'l oldi. U Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870–940-yy.) yunon tili va falsafasini, Yuhanna ibn Hiylondan (860–920-yy.) tibbiyot va mantiq sirlarini o'rgandi. Ba'zi manbalarda Forobiy 70 ta tilni bilishi haqida ma'lumotlar keltiriladi. U Bag'dodda «Bayt ul-hikma» olimlari ishlarini, yunon mualliflarining tarjimalarini o'rganib, o'z bilimlarini boyitdi, ko'p o'tmay, o'zining yuqori axloqi va tafakkuri bilan olimlar orasida yetakchi o'rinni egalladi. Aynan shu yerda unga «Muallim Assana», («Muallimus soniy») ya'ni «Ikkinchi ustoz» (Arastudan keyin ikkinchi, ma'nosida) maqomi beriladi.

Forobiy 941-yilda Damashqqa boradi. U muhtojlikda yashashiga qaramay, falsafa va boshqa fanlar bo'yicha muntazam tadqiqotlar olib boradi. O'sha paytlarda Forobiy Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (943–967-yillarda hokimlik qilgan) iltifoti va homiyligiga erishadi. Hokim Forobiyni o'z saroyiga taklif etsada, u erkin hayot kechirishni afzal, deb bilib, Halabda mustaqil tadqiqotlar olib bordi. U 949-950-yillarda Misrda, so'ngra Damashqda yashadi. Vafot etganidan keyin esa Damashqdagi «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn etildi.

Manbalarda qayd etilishicha, Forobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Ularning aksariyati hozirgi davrgacha yetib kelmagan. Forobiyning muhim asarlari quyidagilardan iborat: «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida», «Falsafiy savollar va ularga javoblar», «Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi», «Taliqot» (sharhlar), «Inson a'zolari haqida risola», «Bo'shliq haqida maqola», «Donolik asoslari», «Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi», «Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi», «Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima», «Mantiq ilmiga kirish», «Ilmlarning kelib chiqishi haqida», «Musiqa haqida katta kitob», «Baxt-saodatga erishuv haqida», «Masalalar mohiyati», «Buyuk kishilarning naqllari», «Ihso alulum», «Hikmat ma'nolari», «Aql to'g'risida», «Ilmlar va san'atlar fazilati», «Qonunlar haqida kitob», «Substansiya haqida so'z», «Falak harakatining doimiyligi haqida», «She'r va qofiyalar haqida so'z», «Ritorika haqida kitob», «Hajm va miqdor haqida so'z», «Musiqa haqida so'z», «Fizika usullari haqida kitob», «Fazilatli xulqlar», «Fozil

FOROBIY YASHAGAN JAMIYAT HAYOTIDA ADOLATNI TA'MINLASHDA ENG ASOSIY OMIL BO'LGAN INSONNING O'ZINI «SIYOSIY MAVJUDOT» SIFATIDA O'RGANISH EHTIYOJI PAYDO BO'LGAN EDI.

> Ibn Sinoning fikricha, o'z aqliy faoliyatidan qoniqish hosil qilish - insonga eng oliy darajadagi lazzat bag'ishlaydi. Inson xatti-harakatlarini boshqarishga intilish razil tabiatli odamning hayvoniy nafsi ixtiyorida bo'ladi. Bunday inson butunlay ma'rifatsiz insondir.

milliy tiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
7
12-iyun, 2024-yil
№22 (1254) chorshanba

UCHINCHISI SARI...

shahar aholisining fikrlari», «Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida», «Aristotel «Metafizika» kitobining maqsadi to'g'risida» va hokazo. XX asrning 70–80-yillariga kelib Toshkent va Olmaotada Forobiyning «Falsafiy risolalar», «Mantiqiy risolalar», «Matematik risolalar», «Ijtimoiy-axloqiy risolalar», «Tadqiqotlar va tarjimalar» asarlari rus tilida nashr etildi.

Forobiy dastlab Arastu asarlariga sharhlar yozib, Arastuning natur-falsafiy ta'limoti targ'ibotchisi va davomchisi sifatida mashhur bo'ldi. Forobiy Aflotun, Aleksandr Afrodiziyskiy, Yevklid, Ptolemey, Porfiriy asarlarini ham tahlil etdi. Shuningdek, u Gippokrat, Epikur, Anaksagor, Diogen, Xrisipp, Aristipp, Suqrot, Zenon asarlari bilan tanishdi.

Birinchi Renessans va undan keyin yashagan olimlardan Ibn Xallikon, Ibn al-Kiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiy, Ibn Sino, Ibn Boja, Umar Xayyom, Beruniy, Ibn Rushd, Ibn Xaldun kabilar esa Forobiy ta'limotini chuqur o'rganib, uni yangi qarashlar bilan boyitdilar. Buyuk mutafakkir va shoirlardan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy kabi mutafakkirlarning ham Forobiy merosidan foydalanganlari haqida ma'lumotlar bor.

Abu Nasr Forobiy fozil jamiyat qurishga oid ulkan ilmiy meros qoldirgan donishmandlardan biri hamdir. U o'rta asr davriga oid tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-siyosiy bilimlarning qariyb barcha sohalarini o'z ichiga oluvchi 160 dan ortiq asarlar yaratgan. Uning ilg'or ratsionalistik va gumanistik fikrlari Ibn Sino, Ibn Rushd, Nizomiy, Umar Xayyom, Maymonid, Rodjer Bekon, Spinoza kabi Sharq va G'arb olim va faylasuflarining dunyoqarashi shakllanishiga, dunyo falsafasi va madaniyati rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Forobiy fikricha, fozillar jamiyatining adolatli bo'lishi va tabaqalar o'rtasida tavofutlarning saqlanishida adolat huquqiy kategoriya vazifasini bajaradi. Uning fikricha, fozil jamoaning nomukammal va johil jamoalardan farqi shundaki, unda odamlar eng go'zal va yaxshi maqsadlarga erishish yo'lida bir-birlariga yaqindan yordam beradi. Forobiy «Fozil shahar odamlari qarashlari» asarida jamiyat («inson jamoasi») ning kelib chiqishi haqida shunday yozadi: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, uning bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kirita olmaydi, ularga ega bo'lish uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug'iladi». Forobiyning fikricha, insoniyat faqatgina ilm va axloqiy yuksakliklar asosida bir butun fozil jamoaga birlasha olishi mumkin. Mutafikkir jahon siyosiy fikrlar tarixida ilk marta fuqarolik jamiyatining asosiy unsurlarini kashf etgan etgan edi.

Forobiy yashagan jamiyat hayotida adolatni ta'minlashda eng asosiy omil bo'lgan insonning o'zini «siyosiy mavjudot» sifatida o'rganish ehtiyoji paydo bo'lgan edi. Forobiyning fikricha, insoniylikning talqini quyidagicha: «Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos «insoniylik»dir. Shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim».

Forobiy X asrning boshlaridayoq adolatli fuqarolik jamiyatining sodda va oddiy modeli loyihasini quyidagicha ta'riflaydi: "Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma bab-barobar bo'ladi, har kim o'zi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'ladilar. Biri ikkinchisiga xo'jayin bo'lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton (ya'ni podshoh) bo'lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi1». Ko'rinib turibdiki, mutafakkir ilgari surgan «madaniy jamiyat»ning asosiy belgisi fuqarolik jamiyatining eng asosiy unsurlaridan biri - inson erkinligi bo'lgani bilan ham ahamiyatlidir.

Forobiy tasavvuridagi mukammal jamiyat va davlatning oliy maqsadi - insonlarni tom ma'noda baxt-saodatga erishuvi yo'lidagi vazifalaridan kelib chiqadi. Albatta, hozirgi davrda davlat va jamiyatning bosh maqsadi xalq farovonligi ekanligiga e'tibor bersak, bu masalani hal qilish yo'li bundan salkam ming yil ilgari mutafakkir tomonidan kashf etilganligiga guvoh bo'lamiz. Alohida ta'kidlash joizki, fozil jamoaga doir Abu Nasr Forobiy ta'limotining asosiy yo'nalishi komil insonni shakllantirish, insonning ma'naviyatli va axloqli bo'lishiga yo'g'rilganligi yaqqol sezilib turadi.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy (970-1048-yy.)

Beruniy 973-yil 4-sentyabrda Xorazmning qadimiy shahri Kot shahrida tavallud topdi. O'zining yozishicha, 990-yildan Kot shahrida astronomik kuzatishlar o'tkazgan, astronomik asboblar ixtiro qilgan. 22 yoshida vatanini tashlab ketishga majbur bo'lgan Beruniy bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashaydi. So'ng Ray shahriga borib, 998-yilda yana Jurjonga qaytadi va bo'lajak ustozi tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiydan ta'lim oladi.

1010-yilda xalifa Abu-l-Abbos Ma'mun II taklifi bilan Urganchga kelgan Beruniyga xalifa yetarlicha izzat-ikrom ko'rsatadi. U Ma'mun II ning yaqin maslahatchisi sifatida siyosiy boshqaruv ishlarida ham ishtirok etadi. Lekin, Xorazm Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olingach, Beruniyni ham G'aznaga olib kelishadi. 1017-1048-yillarda G'aznada yashagan Beruniyning Mahmud G'aznaviy bilan munosabatlari yaxshi bo'lmaydi. Ammo G'aznaviyning o'g'li Mas'ud hukmronligi davrida Beruniy shoh iltifotlariga sazovor bo'lib, asosiy ilmiy tadqiqotlarini yozadi. U astronomiyaga oid «Mas'ud qonuni» asarini sulton Mas'udga bag'ishlaydi.

Beruniy arab, so'g'diy, forsiy, suryoniy, yunon, qadimgi yahudiy hamda sanskrit tillarini chuqur o'rganadi. Ilm-fanning ko'plab sohalarida tadqiqotlar olib borgan Beruniy 162 ta kitob va risolalar yozgan, shundan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Geodeziya», «Ma'danshunoslik», «Mas'ud qonuni», «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar», «Ibn Sino bilan savol-javoblar» kabi asarlari nashr etilib, xorijiy tillarga tarjima qilingan. Abu Rayhon Beruniy astronomik tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida Oy va Quyoshning tutilishi, ularning Yerga ta'siri, gidrogeologiya, iqlim, kalendar (taqvim) kabilarga oid tadqiqotlar ham olib bordi.

Beruniyning asosiy ideali - komil inson o'z or-nomusini bilgan va qadr-qimmatini saqlagan, oliyjanob, muruvvat egasi: «Oliyjanob odam o'zining joni va o'zining mulkidan boshqa hech narsaga egalik qilmaydi, qonunan o'ziga tegishli mulkni boshqaradi. Agar bunday odam boshqalarning og'ir ishini o'z yelkasiga olib, ular uchun o'zi mashaqqat tortib, Alloh unga in'om etgan narsalarini muhtoj odamlarga bersa, unday odam javonmard (fatiyot) deb ataladi. Javonmard o'zining oliyjanobligi va xayr-sahovati bilan mashhur bo'lgan odam. Ayni vaqtda javonmard o'zining xushmuomalaligi, mehr-shafqati, sabot-matonati, sabr-toqati, obro'-izzati bilan ham nom chiqargan odamdir». Beruniy tomonidan tasvirlangan ideal odam, bu - komil insondir.

Beruniy adolatli jamiyat barpo etish yo'lida zulm va yovuzlikni yo'qotish, hukmdorlar va davlat mansabdorlarining nafsini tarbiyalash, ularda ezgu insoniy fazilatlarni yuksaltirish orqali ochko'zlik, xudbinlik, g'arazgo'ylik hamda munofiqlik illatlaridan poklanish zaruratini taklif qiladi. Uning fikricha, nodonlik, nafs buzuqligi oqibatida paydo bo'lgan ijtimoiy illatlarni kuch bilan yo'qotib bo'lmaydi, ularni bartaraf etishning birdan-bir to'g'ri yo'li ilmu ma'rifatdir. Mutafakkir turli illatlardan xalos bo'lish uchun ularni keltirib chiqargan sabablarni bilish va bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqadi. Beruniy ma'rifiy jamiyat qurishni ilmda, deb tushunadi. Ilmu ma'rifatning jamiyatni yaxshilashdagi o'rnini quyidagicha ifodalaydi: «Ilmning pokligi (kuchi) boshqa har qanday narsalarning pokligidan (qimmatidan) ustun turadi. Chunki bilim orqali nodonlik yo'qotiladi va kishilar o'rtasida shubha, ishonchsizlik o'rniga to'g'rilik, adolat va ishonch tug'iladi».

Beruniy adolatli jamiyatni barpo etish uchun birinchi navbatda to'siq bo'lib illatlar ildizini quritish kerakligini uqdiradi: «Yovuzlikdan qutilish uchun inson ikki tabiiy kuch - ochko'zlikka hirs va g'azab ustidan hukmronlik qilishi kerak. Bular inson uchun eng kuchli va xavfli



dushmanlardir... Mana shu ochko'zlik va g'azab ustidan aql va tafakkur kuchlari g'alaba qozonishi kerak. Shundagina inson shaytoniy nafsdan qutilib, Xudoga yaqinlashadi, bu olamning tashvishlaridan xalos bo'lib, ma'naviy yuksalishga intiladi. Ammo, inson bu illatlardan qutilishi uchun ularni keltirib chiqargan sabablarni - boshqalardan ustunlikka, shon-shuhratga hirs qo'yish va intilish illatlarini tark etmog'i kerak».

Shu bilan birga, Abu Rayhon Beruniy fozil jamiyatda yashaydigan komil insonlarning fazilatlari sifatida quyidagi fikrni bildiradi: «Odamgarchilik, ya'ni muruvvat kishining o'zi, urug'-aymog'i va o'z ahvoliga ta'sir etishi bilan chegaralanadi. Mardlik - futuvvat esa undan ham ustun turib, o'zidan tashqariga ham o'tadi. Muruvvatli mard kishi o'zidagi va o'ziniki ekanligiga hech kim tortishib o'tirmaydigan narsadan boshqasiga egalik qilmaydi. Agar u odamlarning osoyishtaligi, deb mashaqqatlarga chidasa, ziqnalik qilmasdan boshqalarga nasib etmay, unga ato etilgan narsalarni birovlarga bersa, bunday odam o'shanday qudrat bilan shuhrat topgan mard kishi sanaladi, u o'zining halimligi, muloyimligi, irodasi mustahkamligi, chidamliligi, kamtarinligi tufayli ulug'vorligi bilan tanilib, garchi u shu martaba ahlidan bo'lmasa ham, oliy darajaga ko'tariladi. U nasl-nasab jihatidan emas, balki haqli ravishda (o'sha sifatlari bilan) ehtirom qilinadi». Abu Rayhon Beruniyning e'tirof etishicha, fuqaroviy jamiyat insoniylik darajasi kishilar kundalik ehtiyojlarining qanchalik qondirilishi bilan belgilanadi. Jamiyatda fuqarolarning farovonligini ta'minlovchi eng muhim omil ijtimoiy adolat qoidalariga amal qilishdir.

XIX asrga kelib jahondagi ko'plab mamlakatlarda Beruniyning ilmiy merosiga qiziqish yanada kuchaydi. Uning kitoblari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etildi. Shuningdek, uning asarlariga oid Yevropa olimlarining asarlari paydo bo'ldi. Taniqli AQSH tarixchi olimi Jorj Sarton Beruniyni «o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi» deb baholadi. Atoqli sharqshunos, akademik V.R.Rozen esa Beruniy «ilmiy qarashlarining taajjublanarli darajada kengligi va hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos» ekanligini qayd etgan.

Abu Ali al- Husayn Abdulloh ibn al-Xasan ibn Ali ibn Sino (980-1037-yy).

Birinchi Renessansning eng mashhur mutafakkirlaridan biri Ibn Sino 980 yilda Buxoroning Afshona qishlog'ida tug'ildi. Husayn 5 yoshligida oilasi bilan Buxoroga ko'chib keladi, shu yerda boshlang'ich ta'limni oladi. 10 yoshga yetganda Ibn Sino Qur'on va adab, hisob va aljabr fanlarini egallaydi, arab tili va adabiyotini mukammal bilish darajasiga ko'tariladi. Uning birinchi ustozi Abu Abdulloh Notimiy edi. U Notimiydan mantiq, xandasa va falakiyot fanlarini o'rganadi, falsafa fanini egallashga beriladi. Unga yana bir buxorolik tabib Abu Mansur al-Xasan ibn Nuh al-Kumriy ustozlik qiladi. Ibn Sino 17 yoshida xalq tabibi sifatida mashhurlikka erishadi. U hukmdor Nux ibn Mansurni og'ir darddan xalos qilgach, shohning marhamati bilan saroy kutubxonasidan foydalana boshlaydi. Mazkur Somoniylar kutubxonasi Sharqdagi katta va eng boy kutubxonalardan biri bo'lib, bu yerda ibn Sino Abu Nasr Forobiyning «Metafizika» kitobini o'qib, o'zlashtiradi.

U ilmiy ijodini 18 yoshdan boshlab, Nux ibn Mansurga atalgan nafsoniy quvvatlar haqida risolasi – «Urjuza» tibbiy she'riy asari, o'z do'sti al-Aruziy iltimosi bilan «Al hikmat al-Aruziy» asarini, yana bir do'sti al-Barqiyning iltimosi bilan 20 jildli «Yakun va natija» qomusiy asari va 2 jildli «Saxovat va jinoyat kitobi»ni yozadi.

999-yilda Qoraxoniylar Buxoroni egallaganidan keyin, Ibn Sino hayotida notinch va og'ir damlar boshlanadi. Natijada Ibn Sino o'sha davrda rivojlangan va madaniy markazga aylangan Xorazmga keladi. Poytaxt Gurganjda Abu Rayhon Beruniy kabi mashhur olimlar yig'ilgan edi. Xorazmshoh - Ali ibn Ma'mun (997-1007-yy.) va Ma'mun ibn Ma'mun (1007-1017-yy.) ma'rifatli, ilm-fanga e'tiborli shaxslar bo'lib, olimlarni e'zozlar edilar. Ibn Sino Xorazmshoh Ma'mun tashkil etgan «Bayt ul-hikma»da (Ma'mun akademiyasi) matematika va astronomiya sohalarida tadqiqotlar olib bordi. Uning iste'dodiga Ibn Iroq va Beruniy bilan bo'lgan ilmiy muloqotlar katta ta'sir etdi. Ibn Sino Abu Saxl Masixiyning tibbiy tajribasi va bilimlaridan ham katta saboq oldi.

Mahmud G'aznaviy Xorazmga tahdid sola boshlaganidan keyin 1011-yilda Ibn Sino Masihiy bilan yashirin tarzda Xorazmni tark etadi. Ular Jurjonga kelishadi. Betob bo'lib qolgan Masihiy yo'lda vafot etadi. Ibn Sino Niso, so'ng Obivard, Tus, Shiqqon va Xurosonning boshqa shaharlari orqali Jurjon amirligiga keladi. U Jurjonda 2 yil (1012 – 1014-) yashab, bu yerda mashhur olim Abu Ubayd Juzjoniy bilan hamkorlik qiladi. Ular Ibn Sinoning so'nggi 25 yillik umri davomida birga do'stlikda yashaydilar. Jurjonda Ibn Sino ilmiy ijod va tabiblik bilan shug'ullanadi, shu yerda «Tib qonunlari» asarini yozishni boshlaydi.

Ibn Sino 1014-yildan boshlab Ray shahrida yashay boshladi. Mahmud G'aznaviyning Rayga hujum qilish xavfi paydo bo'lganidan keyin esa yana ko'chishga majbur bo'lib, Hamadonga ketadi. Ibn Sino ulus hukmdorini og'ir darddan xalos qilganidan keyin saroyga taklif etiladi. U dastlab saroy tabibi, so'ngra vazirlik mansabida faoliyat yuritadi. Davlat boshqaruvi bilan band bo'lishiga qaramay, ilmiy tadqiqotlarni davom ettiradi - falsafiy qomus – «Kitob - ash-shifo» asarini, «Tib qonunlari» asarining keyingi qismlarini yozib tugatadi. Bu asar 1473- yilda Strasburgda nashr etilgan. Shu o'rinda bu asarning Yevropada 40 marta nashr qilinib, adadi bo'yicha Tavrot nashri bilan raqobat qilganini alohida ta'kidlash joiz. Ibn Sinoning ushbu asari – 5 ta kitobi ilk marta mamlakatimizda 1954-1961-yillarda nashr etilgan.

Ibn Sino Hamadonda 1023-yilgacha yashaydi, ammo ayrim sabablarga ko'ra Isfaxonga kelib, umrini oxirigacha - 14 yil shu yerda yashaydi. Juzjoniyning xabar berishicha, Ibn Sino shaharma-shahar xavf ostida sarson bo'lib yurishi, tinim bilmay ilmiy tadqiqotlar bilan band bo'lishi oqibatida qulanj kasalligini orttirib oladi. Hamadonda notinchlik boshlanganida u og'ir xasta bo'lishiga qaramay, safarga otlanadi. Lekin, yo'lda dard uning madorini quritadi. Shu tariqa Ibn Sino 57 yoshida olamdan o'tadi. Uni Hamadonga dafn etadilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Ibn Sino birinchi Renessansning ulug' mutafakkirlaridan biri sifatida o'z falsafiy tadqiqotlarida fozil jamiyat va adolatli davlatni shakllantirishga oid tadqiqotlar olib boradi. U adolatli jamiyatning yashash sharti sifatida birinchi o'ringa insonlar o'rtasidagi axloqiy munosabatlarni qo'yadi. Yuksak axloq sohibi bo'lishga esa ma'rifat yordamida erishiladi. Olimning fikricha, axloqiy munosabatlarning yuksalishi jamiyatning ma'naviy-axloqiy sog'lomligi va sobitligini ta'minlaydi. Shuningdek, insonlarni ma'naviy-ma'rifiy komillikka erushuvi jamiyatning yanada takomillashuvini, unda adolat prinsiplarining barqarorligini ta'minlaydi. Fuqarolarning o'zaro hamjihatligi va hamkorligi jamiyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan sog'lomlashtiradi, insonlar o'rtasida o'zaro mehr-muhabbat va ishonch tuyg'ularini shakllantiradi, odamlarni o'zaro jipslashtiradi, bu bilan yovuzlik va adolatsizlik yo'liga g'ov qo'yiladi.

Ibn Sinoning fikricha, o'z aqliy faoliyatidan qoniqish hosil qilish - insonga eng oliy darajadagi lazzat bag'ishlaydi. Inson xatti-harakatlarini boshqarishga intilish razil tabiatli odamning hayvoniy nafsi ixtiyorida bo'ladi. Bunday inson butunlay ma'rifatsiz insondir. Xulosa qilib aytganda, Abu Ali ibn Sinoning komil insonni shakllantirishga doir qarashlarida ilk Uyg'onish mutafakkirlari kabi ma'naviy qadriyatlarning moddiy hayot qadriyatlaridan ustun qo'yishga moyillik kuchliligi sezilib turadi. Albatta, bugunga kelib, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar fuqarolik jamiyatini takomillashtirish omillaridan biri sifatida o'zini namoyon qilganligi mutafakkir ilgari surgan g'oyalarning nechog'liq ahamiyatga molik bo'lganini bildiradi.

Ma'lumki, Ibn Sino jahon fani tarixida qomusiy olim sifatida e'tirof etiladi, u o'zining ilmi bilan birinchi Renessans dunyosini boyitdi, o'z davridagi barcha fanlarga oid tadqiqotlar bilan shug'ullandi. Turli manbalarga ko'ra Ibn Sino 450 dan ortiq asar yozgan. Hozirgi davrgacha ulardan 242 tasi saqlanib qolgan. Jumladan, ularning 80 tasi falsafa, 43 tasi tabobat sohasiga, boshqalari esa mantiq, psixologiya, tibbiyot, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslik fanlariga oiddir. Ayniqsa, uning tibbiyot va falsafaga oid kitoblari jahondagi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. Mutafakkir nomini «Avitsenna» va «Tib qonunlari» asarlari jahonga mashhur qilgan bo'lsa-da, Ibn Sino aslida «Shayx-ar-rais» («Donishmandlar sardori») maqomini olganligi uning buyuk faylasuf ekanligini anglatadi.

Ko'rinib turibdiki, birinchi Renessansning tuzilishida vatandosh mutafakkirlarimizning o'rni beqiyos. Buning dalili esa ularni jahondagi barcha olimlar e'tirof etishi, asarlarining g'arb tillarida nashr qilinishi, ular uchun g'arb va sharqdagi fanlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etganligidir. Ishonchimiz komilki, ajdodlarimiz yaratgan ilmiy meros uchinchi Renessans va yangi O'zbekiston poydevorini qurishda ham eng muhim va asosiy tamal toshi sifatida xizmat qiladi.

fb.com/milliytiklanish.gazetasi
t.me/milliy_tiklanish_gazetasi
www.mtgazeta.uz
milliytiklanish2022@umail.uz

milliytiklanish
ijtimoiy-siyosiy gazetasi

«Milliy tiklanish»
ijtimoiy-siyosiy gazetasi
www.mtgazeta.uz
№21 (1253)
12-iyun 2024-yil, chorshanba

Ватан,
Байроғинг бир бора ўполганим йўқ,
Мадҳингни ёд билмам, уқолганим йўқ,
Кўнглимни, меҳримни тўқолганим йўқ,
Ва лекин, Ва лекин
Ва лекин, аммо,
Жонимсан, жонимда, бир оҳсан, Ватан!

Омадим ўзингсан, ўзингсан паноҳ,
Не ажаб, бошимда гоҳ тож, гоҳ кулоҳ,
Лабда гоҳ табассум, гоҳ бўғзида оҳ,
Томирим титратган титроқсан, Ватан!

Баъзида хокисор, хору хазонман,
Баъзан шоду комрон, баъзан гирёнман,
Дунё бир ён эрур, мен ҳам бир ёнман,
Нима топган бўлсам, огоҳсан, Ватан!

Эҳтимол, жоҳилмиз, шукурдан йироқ,
Биримиз муттаҳам, кўрнамак, олчоқ,
Биримиз осмонмиз, биримиз туфроқ,
Барчанинг бошида паноҳсан, Ватан!

Келдик, бир ниҳолинг жуфт ауладикми?
Ё ханжар ё қалам, тиғ қайрадикми?
Рост узра ёлғонни ямламадикми?
Сен бунга кафилсан, сўроқсан, Ватан!

Гарчи шеърлар битдик, гоҳ баланд, гоҳ паст,
Гоҳ куйладик маҳзун, гоҳида сармаст,
Ижобат бўлгайми, илтижо- нафас,
Сен ҳофиз, сен-мутриб, машшоқсан, Ватан!

Отамнинг бошида қайрағочларим,
Қўқонда-Жомъеда синч оғочларим,
Шиорим, валийим, ялавочларим,
Туфроғим ичинда, туфроқсан, Ватан!

Карбало хокининг тўзонида сен,
Муслиму муҳсиннинг фиғонида сен,
Шохларнинг, пирларнинг жон жонида сен,
Фурқатим, ғурбатим, фироқсан, Ватан!

Онамга айланган тутларнинг ҳаққи,
Камларинг, кўстларинг, бутларинг ҳаққи,
Туморинг, дуторинг, удларинг ҳаққи,
Балою қазодан йироқсан, Ватан!

Адл тулпорига жилвадор бўлдинг,
Дашту саҳро бўлдинг, ҳору зор бўлдинг,
Гоҳи ғолиб бўлдинг, гоҳи ҳор бўлдинг,
Гўштларин зоғ этган Широқсан, Ватан!

Милтираб-милтираб бир кун сўнармиз,
Яхшию ёмонга балки кўнармиз,
Марқад, мозорларинг ичра дўнармиз,
Байтул ҳазанларда чироқсан, Ватан!

Меҳримнинг тахтида мизғиган болам,
Кўнгил бешик ичра, бешикда жон ҳам,
Сени болам дея бағримга олсам,
Бағримда абадий уйғоқсан, Ватан!

Товоним тагида сойларинг бийрон,
Ҳар нигоҳ, ҳар қадам боғларинг ларзон,
Тоғларнинг, даштларинг чамандир ҳар ён,
Жаннатим, кавсарий булоқсан, Ватан!

Нодира, Увайсий ҳасратлар дилда,
Ҳувайдо, Ҳазиний ҳазратлар дилда,
Қуръону ҳадису ҳайратлар дилда,
Томирда-қонимда тўлғоқсан, Ватан!

Чумоли жонида бир нуқра ундир,
Бу замин, бу замон гарчи кукундир,
Фақат сен борсанки, тўккис бутундир,
Замину замондан огоҳсан, Ватан!

Этни ажратолмас ҳеч ким тирноқдан,
Мангу озоддирмиз қуллик-қийноқдан,
Юзимизни чайдик Кавсар булоқдан,
Этсан, сўнгакдирсан, тирноқсан, Ватан!

Турон туфроғида ёвқур ва ёвар,
Бугун бор, эрта ҳам борсан муқаррар,
Мен сени дегайман маҳшарга қадар,
Қошимсан, кўзимсан, қабоқсан, Ватан!

Макка манзилларинг кўзлаган жонман,
Чўли Ироқ ичра «Чўли Ироқ»ман,
Оламон ичраман, яккамен, тоқмен,
Кўнгилнинг Каъбаси даргоҳсан, Ватан!

Тўғриси, сен ҳақда шеър битмоқ азоб,
Қирқ йилки инградим, жимжит, беитоб,
Пойингга йиқилдим чечакдек шу тоб,
Сочларим гуллатган бир оқсан, Ватан!

САВОЛ БЕРИНГ!

? *– Қурбон ҳайитида неча кун дам оламиз? Шу ҳақда маълумот берсангиз?*

Махсума Алиева, Тошкент шаҳри

– Президентнинг 2023 йил 22 декабрдаги 213-сонли «2024 йилда расмий саналарни нишонлаш даврида қўшимча ишланмайдиган кунларни белгилаш ва дам олиш кунларини кўчириш тўғрисида»ги Фармонига кўра, барча ходимлар учун (иш ҳафтасининг туридан қатъий назар) 2024 йил 18 июнь – сешанба кўшимча дам олиш куни этиб белгиланган. Шундан келиб чиқиб, 6 кунлик иш ҳафтасида ишлайдиган ходимлар учун 16,17,18 июнь кунлари дам олиш куни, 5 кунлик иш ҳафтасида ишлайдиган ходимларга 15,16,17,18 июнь кунлари кетма-кет дам олиш куни ҳисобланади.

? *– Нодавлат ўқув марказлари қандай солиқ имтиёзларидан фойдаланиши мумкин?*

Фаррух Акбаров, Ғиждувон тумани

– Нодавлат ўқув марказлари, давлат таълим ҳамда ўқув дастурлар талабларига риоя этилган ҳолда фаолият юритса, у ҳолда ушбу марказнинг ўқитиш (таълим) соҳасидаги хизматлари реализация қилиш бўйича айланмаси ҚҚСдан озод этилади. Шунингдек, таълимга оид хизматларнинг даромади жами йиллик даромаднинг камида 90 фоизини ташкил этса, у ҳолда фойда солиғининг «0» фоизли ставкасини қўллашга ҳақли бўлади. Таълим объектлари эгаллаган ерлар ер солиғи солинмайдиган ер участкалари жумласига киради. Ушбу имтиёз белгиланган мақсадда бевосита фойдаланилмаётган ер участкаларига нисбатан татбиқ этилмайди

Yurist maslahati расмий телеграм канали

? *– Ишдан бўшаётган ходим ўз аризасини қайтариб олиши мумкинми? Шу ҳақда маълумот берсангиз?*

Соҳиб Иззатуллаев, Тошкент шаҳри

– Қонунда белгиланган ёки ходим ва иш берувчи келишувига кўра қисқартирилган огохлантириш муддати давомида ходим меҳнат шартномаси тугатилганлиги ҳақида буйруқ чиқарилган бўлишидан қатъий назар 14 кун ичида ўз аризасини қайтариб олишга ҳақли. Ходимнинг ўрнига бошқасини таклиф этилганлиги унга аризасини қайтариб олишни рад қилишга асос бўлмайди. Чунки иш берувчи фақат аввалги ходим ўртасидаги меҳнат шартномасини бекор қилганидан кейингина, бу иш (лавозим)га бошка ходимни таклиф қилишга ҳақли.

? *– Ногиронлик даври иш стажига қўшиладими?*

Асқар Неъматов, Бухоро вилояти

– Ҳа, қўшилади. Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 13 октябрдаги 592-сонли қарори билан тасдиқланган "Давлат пенсияларини тайинлаш ва тўлаш тартиби тўғрисида Низом"нинг 79-бандига асосан, Пенсионернинг ёшга доир пенсия тайинланганидан кейинги орттирилган иш стажи ва иш ҳаки, ногиронлик пенсиясини қайта ҳисоблашда иш стажи ва иш ҳаки сифатида инобатга олинмайди ҳамда охирги ўн йиллик меҳнат фаолияти даврига киритилмайди. Агар ёшга доир пенсия тайинланишидан олдин ногирон бўлган ва шу даврда ногиронлик нафақасини олган бўлса, бу ҳолатда ёшга доир пенсияга чиққунгача бўлган давр иш стажига қўшиб ҳисобланиши лозим.

Жалолиддин Темиров, ҳуқуқшунос-маслаҳатчи

? *– Ўриндош ўқитувчиларга таътил қандай ҳисобланади? Шу ҳақда билмоқчи эдим.*

Жаҳонгир Абдуназаров, Урганч шаҳри

– Вазирлар Маҳкамасининг 297-сонли «Ўриндошлик асосида ҳамда бир неча касбда ва лавозимда ишлаш тартиби тўғрисида»ги низомнинг 16-бандида Ўриндошлик асосида ишловчи шахсларга ҳар йилги асосий, шунингдек, ўриндошлар ҳақли бўлган қўшимча таътиллар асосий иш жойидаги ҳар йилги меҳнат таътили билан бир вақтда берилади. Биринчи иш йилида олти ой ишлаган ўриндошларнинг меҳнат таътилига, шунингдек, ишнинг кейинги йиллари учун меҳнат таътилига ўриндошлик асосидаги ишнинг ўртача иш ҳақидан келиб чиққан ҳолда одатдаги тартибда ҳақ тўланади.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

? *– «Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида»ги Қонун кимларга татбиқ қилинади?*

Ихтиёр Эргашев, Самарқанд вилояти

– 2024 йилнинг 5 июнида қабул қилинган «Манфаатлар тўқнашуви тўғрисида»ги Қонун давлат органлари ва маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, давлат муассасалари, давлат унитар корхоналари, давлат максадли жамғармалари, шунингдек, устав фондида (устав капиталида) давлат улуши 50 фоиз миқдорда ва ундан ортиқ бўлган акциядорлик жамиятларига нисбатан татбиқ этилади.

? *– Биринчи синфга қабул қачондан бошланади? Шу ҳақда маълумот бера оласизми?*

Мафтуна Ибрагимова, Наманган вилояти

– Албатта. 1-синфга қабул 20 июндан бошланади. Шу санадан бошлаб my.maktab.uz электрон платформаси орқали рўйхатдан ўтиб, ариза топшириш мумкин. «Таълим тўғрисида»ги Қонунга мувофиқ, бу йил 1-синфга 2017 йилнинг 31 декабрига қадар туғилган болалар қабул қилинади.

Мактабгача ва мактаб таълими вазирлиги Ахборот хизмати

O'zingizni qiziqtirgan savollarga javob topolmayapsizmi? Bizning quyidagi telegram manzilimizga yo'llang, mutaxassislar savollaringizga javob berishadi.
90 245-18-10

✔ Спорт

МИЛЛИЙ ТЕРМА ЖАМОАМИЗ ЭРОН БИЛАН ДУРАНГ ЎЙНАДИ

Осиё қитъасида футбол бўйича 2026 йилги Жаҳон чемпионати ва 2027 йилги Осиё кубоги қўшма саралаш босқичининг сўнгги, 6-тур баҳслари ўтказилди. "Е" гуруҳида Эрон ва Ўзбекистон, Туркманистон ҳамда Ҳонгконг миллий терма жамоалари ўзаро беллашди.

Техрондаги "Озоди" стадионида ўтган Эрон ва Ўзбекистон учрашувида 0:0 ҳисоби қайд этилди. Туркманистон ва Ҳонгконг баҳсида ҳам ҳисоб очилмади.

Шу тарика, "Е" гуруҳида Эрон ва Ўзбекистон 14 очко билан Осиё кубоги финал босқичига тўғридан-тўғри йўл олди ва Жаҳон чемпионатининг учинчи босқичига чиқди. Туркманистон ва Ҳонгконг эса 2 очко билан 3-4 ўринларда қолди.

Жавоҳир ТОШХЎЖАЕВ, ЎзА

✔ Эълон

«Миллий тикланиш» демократик партияси Марказий кенгаши ижроия қўмитаси қуйидаги тарғибот материалларини тайёрлаш ва сотиб олиш учун

ТЕНДЕР ЭЪЛОН ҚИЛАДИ

1. Партия логотипи туширилган нимча – 200 дона,
2. Партия логотипи туширилган «кепка» - 200 дона,
3. Металл нишон – 20000 дона.
4. Аъзолик гувоҳномаси учун чипсиз пластик карта – 100 000 дона.
5. Моноблок HP (440 G9 AiO 440 G9 AiO 24 i5-12500T / 8GB DDR4 / 512GB M.2 SSD Value / Windows 11 Pro 64) – 100 дона
6. iPhone 15 Pro Max 256 ГБ БЛАСК – 15 дона
7. Стабилизатор SmallRig – 15 дона
8. Микрафон Saramonic blink me u2 – 15 дона.

Мурожаат учун телефон:
+998 (71) 239-45-77

Ўтганларнинг охирати обод бўлсин!

Партия Марказий кенгаши ҳамда «Миллий тикланиш» газетаси жамоаси Марказий кенгаш раиси ўринбосари Феруза Муҳаммеджановага падари бузруквори ХОТАМЖОН СОБИРЖОНОВИЧ МУҲАММЕДЖАНОВнинг вафоти муносабати билан чуқур ҳамдардлик билдиради.

«MILLIY TIKLANISH» DEMOKRATIK PARTIYASINING IJTIMOIY-SIYOSIY GAZETASI

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Alisher QODIROV – kengash raisi
Akmal SAIDOV, Abror PO'LATOV, Amriddin BERDIMURODOV, Akmal JUMABOYEV, Bahodir MAMATXONOV, Ilhom ABDULLAYEV, Ibrohim G'OFUROV, Iroda DADAJONOVA, Minhojiddin MIRZO, Nuriyman ABULXASAN, Odiljon TOJIYEV, Olim O'SAROV, Otabek JIYANBOYEV, Ozodbek NAZARBEKOV, Ortiqali QOZOQOV, To'lqin TESHABOYEV, Feruza MUHAMMEDJANOVA, Xurshid DO'STMUHAMMAD, Sherzodxon QUDRATXO'JA, Shuxratjon AXUNDJANOV.

Bosh muharrir:
Mirodil ABDURAHMONOV

TAHRIRIYAT MANZILI:
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Maqsud Shayxzoda ko'chasi, 1 A-uy.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.

Gazetada Internet ma'lumotlari va suratlaridan foydalanildi.

Tahririyatga kelgan xatlar doimiy e'tiborimizda bo'lib, ular mualliflariga qaytarilmaydi.

NAVBATCHI MUHARRIRLAR:
Abdug'affor OMONBOYEV, Mahbuba KARIMOVA
NASHR UCHUN MAS'UL:
Ma'murjon YO'LDOSHEV
NAVBATCHI:
Feruza XODJAYEVA
DIZAYN GURUHI:
Asilbek QUDRATOV, Firdavs HAMIDULLAYEV

Elektron pochta:
mtiklanish@bk.ru / mtiklanish@mail.ru

Gazeta «Sharq» nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi.
Korxona manzili: «Buyuk Turon» ko'chasi, 41-uy

2008-yil 29-oktyabrda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0223 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.
Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

Adadi – 5 063.
Gazetaning bahosi kelishilgan narxda.
Qog'oz bichimi: 350x587. Hajmi: 4 bosma taboq
Buyurtma: G – 621
Bosishga topshirish vaqti 21:00.
Topshirildi 04:45

Telefon:
(97) 755-10-11

ISSN 2010-7714

123456